



TARBIYA FANI

PEDAGOGLARINI TAYYORLASH JARAYONI QANDAY KECHYAPTI?

«HUKUMAT SOATI»DA DEPUTATLAR OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRI IBROHIM ABDURAHMONOVNING «PEDAGOGIKA OLIYGOHLARIDA ZAMONAVIY KADRLARNI TAYYORLASH BO'YICHA OLIB BORILAYOTGAN ISHLAR TO'G'RI SIDA»GI HISOBOTINI ESHITDILAR.

3-bet

TAHLIL VA TAKLIF 4

OQSAYOTGAN TIZIM

yoxud Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziriga takliflar

VAZIYATGA NAZAR 8

TARBIYA BAXT, tarbiyasizlik fojidadir



DOLZARB MAVZU 13

ENG KATTA AYBDOR O'ZIMIZ



MOZIYGA YUZLANIB 14

«BOBURNOMA»DA OQILA, MUDABBIRA onalar qanday tasvirlangan?

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Jizzax viloyatiga tashrifi chog'ida parlamentning, partiyalar va deputatlarining shu kunlarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlardagi ishtiroki, roli va mas'uliyatini yanada oshirish bo'yicha muhim takliflar, tashabbuslar ilgari surildi. Shundan kelib chiqib, «Milliy tiklanish» partiyasi deputatlari o'z okrugida, mahallalarda oltita ustuvor yo'nalishga e'tibor qaratishi lozim.



PEDOFILLARNI AYAGANNING O'ZI



JINOYATCHI

Prezident Shavkat Mirziyoyevning Jizzax viloyatiga tashrifi chog'ida partiyalar va deputatlarining shu kunlarda amalga oshirilayotgan islohotlardagi ishtiroki, roli va mas'uliyatini yanada oshirish bo'yicha muhim taklif va tashabbuslar ilgari surildi. Shundan kelib chiqib, «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi deputatlari o'z okruglarida oltita ustuvor yo'nalishga e'tibor qaratishlari lozim. Jumladan, maktabgacha va maktab ta'limi, ta'lim-tarbiya masalalari, tarixiy obidalarini asrash, turizmni rivojlantirish bilan birga energetika islohotlari, aholi bandligini ta'minlash borasidagi ishlar samaradorligini baholaydi va nazorat qiladi. Oliy Majlis Qonunchilik palatasida Alisher O'qirov yig'ilishida Alisher Qodirov ushbu fikrlarni bildirar ekan, saylovchilar bilan bo'lgan uchrashuvlarda aholiga bugungi o'zgarishlar jarayoni mazmun-himoyatini to'g'ri tushuntirish, tashviqot-targ'ibot ishlarida faollik ko'rsatishlari lozimligiga e'tibor qaratdi. – Shundan kelib chiqib, barcha darajadagi deputatlar faolligini monitoring qilamiz va bu bo'yicha tegishli xulosalar chiqariladi, – dedi Alisher Qodirov. Shundan so'ng deputatlar Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha Vakilining (ombudsmanning) 2022-yildagi faoliyatini tahlil qildilar. Vakil Feruza Eshmatovaning ta'kidlashicha, Ombudsmanning asosiy vazifalari jamiyatda demokratik islohotlarning amalga oshirilishi, qonun ustuvorligining ta'minlanishi hamda inson huquq va erkinliklarining kafolatlanishi, shuningdek, fuqarolarning murojaatlarini ko'rib chiqish, ularning buzilgan huquq va qonuniy manfaatlarini himoya

qilishdan iboratdir. O'tgan yili Ombudsmanga O'zbekiston va xorijiy davlatlar fuqarolari, jamoat tashkilotlari va boshqa yuridik shaxslardan 17761 ta murojaat kelib tushgan. Bu 2021-yilga nisbatan 5,2 foizga kamdir. Shu o'rinda murojaatlarning 45 foizi xotin-qizlardan, 49 foizi esa erkaklardan kelganini ta'kidlash joiz. Viloyatlar kesimida olganda eng ko'p murojaat Qashqadaryo viloyati (2297 ta) va Toshkent shahridan (2079 ta), keyingi o'rinlarni esa Surxondaryo (1582 ta) va Toshkent (947 ta) viloyatlari egallagan. Eng kam murojaat Qoraqalpog'iston Respublikasi (292 ta) va Andijon viloyatidan (388 ta) tushgan. Murojaatlar davlat organlari va tashkilotlari kesimida tahlil qilinganda, Majburiy ijro byurosi faoliyati ustidan kelib tushgan shikoyatlar ko'p ekani aniqlandi. Deputatlar partiyaviy maqsadlardan kelib chiqqan holda Ombudsmanga ta'lim sohasi hamda oila bilan bog'liq murojaatlarga e'tibor qaratdilar. Hisobotda qayd etilishicha, ta'lim sohasi bilan bog'liq 407 ta murojaat kelib tushgan bo'lib, ularning 133 tasi nazoratga olingan. Oila huquqi yo'nalishida 683 ta murojaat ko'rib chiqilib, ularning 327 tasi parlament nazorati subyekti sifatida o'rganib chiqilgan. E'tiborlisi, ushbu murojaatlarning 98 tasi ayollar huquqlarining cheklanishi va oilada ayolning tahqirlanishi bilan bog'liqdir. Aliment masalasida esa 316 ta murojaat kelib tushgan. Mazkur yo'nalishlarda amalga oshirilgan ishlar natijasida xotin-qizlarning 9 nafariga «himoya orderi» berilishida ko'mak berilgan. Shu o'rinda Ombudsman so'roviga asosan 45,5 mln. so'mlik aliment to'lovlari undirib berilganini aytish joiz. Hisobot bilan batafsil

tanishgan deputatlar Ombudsman faoliyatini ijobiy baholab, xorijda, ayniqsa, Rossiyada asossiz qamalagan deya taxmin qilinayotgan vatandoshlarimizning huquqlarini tiklash bo'yicha ushbu davlat Ombudsmani bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish taklifini bildirdilar. Deputatlar Oliy Majlisning bola huquqlari bo'yicha Vakili faoliyati (bolalar ombudsmani) bilan ham tanishdilar. Ta'kidlanishicha, o'tgan yili Bola huquqlari bo'yicha vakil nomiga 696 ta murojaat kelib tushgan. – O'zbekistonda bolalar huquqlarini himoya qilish dolzarb masala bo'lib, mamlakatimiz aholisining 40 foizini voyaga yetmaganlar tashkil qiladi. Ularga nisbatan zo'rvonlik va zazyiq o'tkazganlarga nisbatan jazo choralarini kuchaytirish masalasini ikki yildan buyon ko'taryapmiz. Bunday shaxslarga nisbatan eng og'ir jazolar qo'llanilishi kerak, – dedi Bola huquqlari bo'yicha Ombudsman Aliya Yunusova. Fraksiya a'zolari bu taklifni qo'llab-quvvatlab, pedofiliyaga, voyaga yetmaganlarni jinsiy aloqaga zo'rqlashga nisbatan jazo choralarini kuchaytirish, otanalarning farzandlari ta'lim-tarbiyasidagi mas'uliyatini yanada oshirish lozimligini ta'kidladi. A.Yunusova qarindoshlar o'rtasidagi nikoh masalasini ham ko'tardi. Ayniqsa, bunday holatlar Qashqadaryo, Surxondaryo va Samarqand viloyatlarida ko'p uchrayotgani va bunday nikohlardan nogiron bolalar tug'ilayotganini ta'kidladi. Bolalar Ombudsmani «Dok-1 Maks» bilan bog'liq voqeani ham eslab, bolalarga dori-darmon berish masalasiga jiddiy e'tibor qaratish kerakligini, bunda Sog'liqni saqlash vazirligi javobgar bo'lishi zarurligini qayd etdi.

Vakilning aytishicha, 2017-yilda birgina Samarqand viloyatida 600 nafardan ko'proq chaqaloq vafot etgan. Shundan keyin deputatlar bolalar dori vositalarini «retseptsiz sotishni taqiqlash bo'yicha qonunchilikka o'zgartirish kiritish taklifini ko'tardilar. Bu borada fraksiyaning Ombudsman bilan hamkorligini kengaytirish, ular faoliyati samaradorligini yanada oshirish uchun budjetdan qo'shimcha mablag' ajratish, eng asosiysi, Bolalar ombudsmani bo'yicha alohida qonun qabul qilishni tezlashtirish zarur degan xulosaga kelindi. «Raqobat to'g'risidagi qonun loyihasi birinchi o'qishda bo'lgani kabi ikkinchi o'qishda ham qizg'in muhokama qilinib, qabul qilindi. Chunki 10 yil muqaddam qabul qilingan amaldagi qonun bugungi kun talablariga mutlaqo javob bermayapti. Fraksiya a'zosi Ruslan Jumamuratovning ta'kidlashicha, ushbu qonun loyihasi monopoliyaga oid normativ-huquqiy hujjatlariga xalqaro talablardan kelib chiqib, davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini kamaytirishga qaratilgan normalarni kiritish hamda raqobatni cheklashga olib keladigan holatlarni aniqlash, tegishli choralarini ko'rish, imtiyoz va preferensiyalarning aniq maqsad hamda yo'nalishlarini belgilash zarurligini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan. Muhokamalar jarayonida Alisher Hamroyev ushbu qonun tanlama usulda, ya'ni barcha uchun birdek ishlamayotganini, bu boradagi ishlar juda ko'pligini ta'kidladi. Shuningdek, muhokamalarda Nodirbek Tilavoldiyev, Bekmirza Eshmurzayev hamda O'ktam Islamovlar ham faol ishtirok etdilar. Yig'ilishda «O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun

hujjatlariga alohida toifadagi jismoniy shaxslar tomonidan ijtimoiy soliq to'lash tartibini takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritish to'g'risidagi qonun loyihasi ham atroflicha muhokama qilinib, ikkinchi o'qishda tasdiqlandi. Ma'lumki, aholi bandligini ta'minlash va ijtimoiy himoyasini yanada kuchaytirish, norasmiy bandlik ulushini qisqartirish hamda o'zini o'zi band qilgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash ustuvor masalalardan biriga aylangan. Yana bir masala: ayni paytda yakka tartibdagi tadbirkorlar bilan mehnat munosabatlarida bo'lgan jismoniy shaxslar uchun oylik ijtimoiy soliq summasining yuqoriligi, shaxsiy tomorqa yer uchastkasida faoliyat yuritayotgan fuqarolarning esa mehnat stajini hisoblashdagi ortiqcha talab va tartib-taomillar yaratilgan imkoniyatlardan to'liq foydalanishda muammolar keltirib chiqarayotganini ko'rsatmoqda. Shu bois, ushbu qonun bilan Soliq kodeksiga savdo majmualari va bozorlarda faoliyat yuritayotgan YATtlardan tashqari, boshqa YATT bilan mehnat munosabatlarida bo'lgan jismoniy shaxslar uchun to'lanishi lozim bo'lgan ijtimoiy soliq summasini yiliga BHMning olti barobaridan bir baravarigacha kamaytirish, shuningdek, shaxsiy tomorqa yer uchastkalarida shug'ullanayotgan fuqarolar uchun tomorqa yer uchastkasi maydoni va parvarish qilinayotgan uy hayvonlari, parrandalarning sonidan qat'iy nazar ixtiyoriy ravishda ijtimoiy soliq to'lash imkoniyatini nazarda tutuvchi o'zgartirishlar kiritilmoqda.

Ravshan MAHMUDOV,
«Milliy tiklanish»
muxbiri

PREZIDENT MAKTABI 2 MILLION DOLLARDAN ZIYOD MABLAG' YUTIB OLDI

Nurafshon shahridagi Prezident maktabi ham Toshkent viloyatidagi iqtidorli o'g'il-qizlar uchun keng imkoniyatlar yaratgan maskanlardan biridir. Mazkur ta'lim muassasasi 168 o'ringa mo'ljallangan 2 qavatli bo'lib, bu yerda o'quvchilarning bilim olishi uchun barcha qulayliklar mavjud. Sinfxonalar eng zamonaviy o'quv anjomlari bilan ta'minlangan, internet tarmog'iga ulangan. Shuningdek, sport va boshqa tadbirlar o'tkaziladigan zallar, oshxona, yotoqxona kabi qo'shimcha xonalar ham o'ziga xos tarzda jihozlangan. Hozir 5-, 11-sinflarda 168 nafar o'quvchi tahsil olyapti. Ularni o'qitish jarayoni tabiiy fanlar, texnologiyalar, texnik ijodkorlik, san'at, matematika sohalarini chuqur ixtisoslashgan holda o'qitishga asoslangan. Darslar tajribali 20 nafarga yaqin xorijlik va mahalliy pedagoglar tomonidan olib boriladi. Sa'y-harakatlar tufayli maktabning joriy yilgi 11-sinf bitiruvchilari jahonning nufuzli oliyog'larida ta'lim olish uchun grant yutib olyapti. Hozirgacha bu mablag'larning umumiy hisobi 2 million dollardan oshdi va bu hali davom etyapti. Ulardan biri 11-sinf o'quvchisi, angrenlik Behzod Asqaraliyev. U xorijdagi 25 dan ziyod universitetga hujjat topshirgan edi.

– Men iqtisodiyot, menejment, kompyuter texnologiyalari va shu kabi sohalariga qiziqaman, – deydi B. Asqaraliyev. – Hozirgacha AQSH, BAA va Shveysariya davlatlaridagi oliy ta'lim muassasalaridan qabul xatlarini oldim. 105 ming dollarlik grant yutdim. Kelgusi rejalaring ko'p va ularga erishish uchun bor imkoniyatimni ishga solaman. Boshqa tengdoshlarimga ham bo'sh vaqtdan samarali foydalanib til o'rganishni, hozirgi kunda talab yuqori bo'lgan sohalaridagi yangiliklarni kuzatib borishni maslahat bergan bo'lardim. Bugungacha erishgan natijalarimda Prezident maktabining o'rni katta zamin bo'ldi. Darslarda o'qituvchilarimizdan ko'proq bilimlarni olishga harakat qilamiz.

A.MUSAYEV, O'zA.



Oliy Majlis Qonunchilik palatasida navbatdagi «Hukumat soati» bo'lib o'tdi. Unda deputatlar Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri Ibrohim Abdurahmonovning «Pedagogika oliyog'larida zamonaviy pedagoglarni tayyorlash bo'yicha olib borilayotgan ishlar to'g'risida»gi hisobotini eshitdilar.

TARBIYA FANI PEDAGOGLARINI TAYYORLASH BORASIDA QANDAY ISHLAR AMALGA OSHIRILMOQDA?

Ta'kidlanganidek, so'nggi yillarda yurtimizda pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalarini tizimli rivojlantirish va ularda boshqaruv faoliyatini takomillashtirish, ilg'or xorijiy tajribalarni joriy etgan holda zamonaviy ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, yuqori malakali professional kadrlar tayyorlashni yangi bosqichga ko'tarishda ta'lim, ilm-fan va amaliyot uyg'unligini ta'minlash maqsadida keng ko'lami ishlar amalga oshirilmoqda.

Vazirning qayd etishicha, bugun mamlakatimizdagi 14 ta pedagogika oliyog'ida 27 ta ta'lim yo'nalishi bo'yicha pedagog kadrlar tayyorlanayapti. Mazkur ta'lim muassasalarida pedagoglarni tayyorlash metodikasi zamonaviy ta'lim-tarbiya talablariga muvofiq olib borilmoqda. Jumladan, 2022/2023-o'quv yili uchun ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarining 59 ta o'quv reja va 1004 ta fan dasturi mazmunan to'liq qayta ko'rib chiqilib, xalqaro talablar asosida takomillashtirildi. Shuningdek, o'quv rejalar va fan dasturlarini tayyorlashga xorijiy oliy ta'lim muassasasi mutaxassislari ekspert hamda hammualif sifatida jalb etildi. Shu o'rinda o'quv reja va fan dasturlarining Ta'limning xalqaro standart klassifikatsiyasi (MCKO+2011) va xalqaro baholash dasturlari (PISA, TIMSS, PIRLS, TALIS)ga muvofiqlashtirilganini ta'kidlash joiz.

Pedagog kadrlar tayyorlaydigan OTMda tahsil olayotgan 2-4 bosqich talabalarining malakaviy amaliyot o'tashlari uchun Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan, umumta'lim va maxsus maktablarda, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida «4+2» tartibi qo'llanilyapti. Bu o'z navbatida, ta'lim-tarbiya hamda nazariya va amaliyotning uyg'unligini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Deputatlar sohada olib borilayotgan ishlarni e'tirof etish barobarida jahon tajribasida uzog'i bilan uch yil pedagoglar

tayyorlayotgan bir paytda, bizda to'rt yillik ta'lim dasturlaridan foydalanish to'g'rimi deb savol berdilar.

I. Abdurahmonov bu savolga javob qaytarar ekan, oliy ma'lumotli pedagog mutaxassislar tayyorlash jarayonini optimallashtirish natijasida 2020/2021-o'quv yilidan musiqa, jismoniy madaniyat, texnologik ta'lim, chaqiriqqa harbiy ta'lim, tasviriy san'at va muhandislik grafikasi, maktabgacha ta'lim, maktabgacha va boshlang'ich ta'limda jismoniy tarbiya va sport kabi ta'lim yo'nalishlarining o'qish muddati uch yil etib belgilanganini ta'kidladi.

Davlatimiz rahbarining «2022 – 2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida»gi Farmoniga ko'ra, 2022/2023-o'quv yilidan boshlab o'quv dasturlari o'zaro yaqin bo'lgan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha asosiy va qo'shimcha mutaxassislik (kvalifikatsiya)lar berish, xususan, joriy o'quv yilida 4 ta ta'lim yo'nalishi: Matematika va informatika (qo'shimcha informatika fani o'qituvchisi), Pedagogika (qo'shimcha tarbiya fani o'qituvchisi), Biologiya (qo'shimcha tabiiy fanlar o'qituvchisi), Maxsus pedagogika: surdopedagogika (qo'shimcha surdotarjimon) bo'yicha asosiy va qo'shimcha mutaxassislik (kvalifikatsiya)lar berish tartibi joriy qilindi.

Qayd etish joizki, asosiy va qo'shimcha mutaxassislik(kvalifikatsiya)lar berish bo'lajak pedagog kadrlar faoliyatini samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Shulardan kelib chiqib, pedagoglar tayyorlash uchun to'rt yillik ta'lim dasturi to'g'ri tanlangan deb hisoblaymiz.

Partiyamiz fraksiyasi a'zolari ham partiya g'oyalari bilan kelib chiqqan holda, umumiy o'rta ta'lim maktablarida Tarbiya darsliklarini o'qitish uchun maxsus pedagogik va psixologik ko'nikmalarga ega kadrlarni tayyorlash borasidagi ishlar bilan qiziqdilar.

Vazir 2022/2023-o'quv yilidan boshlab o'quv dasturlari o'zaro yaqin bo'lgan bakalavriat ta'limi yo'nalishlari bo'yicha asosiy va qo'shimcha mutaxassislik(kvalifikatsiya)lar berish tartibi, xususan, 2022 – 2023-o'quv yilidan boshlab Pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishi negizida Pedagogika (qo'shimcha tarbiya) ta'lim yo'nalishi tashkil etilganini ta'kidladi. Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilari uchun hatto oliy ta'lim muassasasi professor-o'qituvchilari tomonidan «Pedagogika nazariyasi va tarixi», «Kreativ pedagogika», «Ijtimoiy pedagogika», «Milliy tarbiya», «Tarbiya diagnostikasi va korreksiyasi» va «Umumiy o'rta ta'lim maktablarida Tarbiya fanini o'qitish metodikasi» kabi yangi avlod adabiyotlari ham yaratilmoqda.

Bundan tashqari, Tarbiya fanidan saboq beruvchilarni tayyorlash uchun «Umumiy o'rta ta'lim maktablarida Tarbiya fanini o'qitish metodikasi» o'quv adabiyotlari yaratildi. Ularda bir qator ta'lim texnologiyalari va metodika hamda uni o'qitish uchun maxsus pedagogik, psixologik ko'nikmalarga ega bo'lajak kadrlarni tayyorlashda situativ ta'lim, badiiy pedagogika, buktreyler, vitagen ta'lim, event ta'lim imkoniyatlaridan foydalanib, dars o'tishlari uchun tavsiyalar berilgan.

Ma'lumki, kreativ yondashuv asosida metod va texnologiyalarni tanlash, milliy mentalitetga mosligini ta'minlash, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning zamonaviy va yordamchi shakllaridan unumli foydalanish hamda kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar ham olib borilmoqda.

Savol-javoblarga boy bo'lgan «Hukumat soati»dagi deputatlar soha istiqboliga qaratilgan bir qator taklif va tavsiyalar berdilar. Muhokamalar so'ngida kun tartibidagi masala yuzasidan samarali parlament nazoratini ta'minlashga kelishib olindi.

Sardor MULLAJONOV tayyorladi.

Statistik ma'lumotlar keyingi 6 yilda oliy o'quv yurtlari soni 77 tadan 199 taga yetgani, qabul 3,5 baravarga, qamrov darajasi esa 9 foizdan 38 foizga oshganligini ko'rsatmoqda. Ammo ayrim tahlilchilar ana shunday o'zgarishlarga qaramay, oliy o'quv yurtlarida ta'lim sifati talab darajasida emasligini ta'kidlamogdalar.



OQSAYOTGAN TIZIM

YOXUD OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRIGA TAKLIFLAR

Yoshlar ta'бири bilan aytganda esa dunyo mamlakatlari allaqachon kirish osoti, diplom olish qiyin bo'lgan oliy ta'lim tizimiga o'tgan. Ammo bizda hanuzgacha kirish qiyin, ammo o'qish pista chaqishdek oson bo'lgan tizimga amal qilinayotir. Xo'sh, bugungi islohotlar yoshlarimizni qanoatlantirishi uchun nimalarga e'tibor qaratish muhim? Umuman, oliy ta'limning chindan ham OLIY bo'lishi uchun qanday o'zgarishlar amalga oshirilishi kerak? Ana shunday savollarga javob olish maqsadida «El-yurt umidi» jamg'armasi stipendiati, Aytning Lester universiteti magistranti Samandar ISMOILOV bilan suhbatlashdik.

– Bugun xorijda ta'lim olayotgan qariyb 86 ming nafar talabalar bor. Tabiiyki, o'zingiz tahsil olayotgan Lester universiteti va o'zimizdagi OTM o'rtasidagi tafovutlarni qiyoslay olasiz. Aytgunchi, bugun oliy ta'lim rivojiga halaqit berayotgan qanday kamchiliklar bor?

– O'zbekistonda ta'lim sohasiga juda katta e'tibor qaratilayotgani shubhasiz, real natija va raqamlardan ham ko'rinib turibdi. Bunday o'zgarishlardan har qancha quvonsak arziydi. Ammo shunga qaramay OTM faoliyatida bir qator kamchiliklar borligi xorijdagi OTM bilan solishtirilganda yaqqol ko'rinib qolyapti. Masalan, bizda bitta fandan yakuniy imtihon topshira olmagan talaba kursdan kursga qoladi va keyingi yil barcha fanlarni, shuningdek, joriy yilda muvaffaqiyatli tugatgan fanlarini ham boshqatdan o'qishga majbur bo'ladi. Ikkinchisi, diplomlarni tasniflash joriy etilmagani

ham talabalar shashtini so'ndirib, yaxshi ko'rsatkich bilan o'qishni tugatishga motivatsiya berilmayapti. Yana bir oqsashimiz esa amaldagi baholash tizimi bilan bog'liq. Bu haligacha sobiq sovet davlatlarida amal qilayotgan tartib bo'lib, agar talaba boshqa fanlardan 5 olib, bitta fandan 4 baho olsa ham uning umumiy ko'rsatkichi 4 bahoga tushiriladi. Bu esa, talabani qolgan fanlardan 5 olishga bo'lgan intilishini so'ndiradi. Ma'lumki, zamonaviy ish beruvchi bitiruvchining qanday diplom olganiga e'tibor qaratmay, shaxsan suhbat o'tkazadi va ma'qul kelgan nomzodni ishga oladi. Baski, ishga kirishda diplomdagi baholar rol o'ynamas ekan, nega unda tasniflangan baholash tizimidan voz kechmayapmiz?

– Milliy oliy ta'limdagi baholash tizimini Yevropa standartlariga moslashtirish va diplomlarni tasniflash bizga nima beradi?

– Yaqinda Yevropa oliy ta'limida diplomlarning darajalarga bo'linishi va bu klassifikatsiyani muhimligi o'rganilib, talabani keyingi professional va akademik hayotdagi o'rni Buyuk Britaniya misolida tahlil qilindi. Britaniyada bakalavr, magistr, PhD va doktorlik kabi akademik va ilmiy darajalar talabani umumiy jamg'argan ballarining o'rtacha qiymatiga qarab tasniflarga bo'linadi va bu diplomda aniq ko'rsatiladi. Xususan, bakalavriat diplomlari talabalarni ilmiy yutuqlar asosida yaxshiyomonga ajratish uchun quyidagicha tasniflanadi: Talabani 3 yillik baholari o'rtacha qiymati 100 ballik baholash tizimida 70 foiz yoki undan yuqori bo'lsa, unga birinchi darajali sharaflil diplom (First-Class Honours) beriladi. 60-69 foiz oraliqida ball to'plagan talabaga esa ikkinchi yuqori darajali

sharaflil diplom (Upper Second-class honours) nasib qiladi. Ikkinchi quyi darajali sharaflil diplom (Lower second-class honours) olish uchun 50-59 foiz oraliqida ball to'plash kerak bo'ladi. Agar talaba 45-49 foiz oraliqida ball to'plasa, shubhasiz, u uchinchi darajali sharaflil diplomni qo'lga kiritadi. 40-44 foiz oraliqida ball to'plagan talabalar esa oddiy darajali (Ordinary degree/Pass) diplom oladilar. Mabodo umumiy o'rtacha ball 40 foizdan past bo'lsa, talabalarga bakalavr darajasi taqdim etilmaydi. Magistratura bosqichida esa talabani o'rtacha bali umumiy ballning kamida 50 foizini tashkil etgan taqdiridagina imtihondan o'tishi mumkin. Buyuk Britaniya oliy ta'lim tizimida eng quyi darajali diplom – ikkinchi quyi darajali (Lower second-class honours) diplom hisoblanadi.

– Ushbu baholash tizimi boshqa davlatlarda qanday?

– Dunyodagi «TOP 500»talikka kirgan universitetlarning magistratura bosqichiga qabul qilinuvchi talaba kamida ikkinchi quyi darajali sharaflil bakalavr diplomiga ega bo'lishi kerak. «TOP 200»talik reytingda turuvchi universitetlar esa kamida ikkinchi yuqori darajali diplom egalarini qabul qiladi. Shuningdek, ish beruvchi tashkilot ham asosiy mezon sifatida bitiruvchining diplom darajasiga e'tibor qaratadi va vakant o'rin e'lonida bu talab aniq ko'rsatiladi. Diplomlarni darajalarga bo'lib tasniflash amalda AQSH, Buyuk Britaniya, Xitoy, Singapur, Yevropa mamlakatlari, Avstraliya, Yangi Zelandiya va Kanada kabi davlatlarda joriy etilgan.

– Mamlakatimizda talaba joriy yilda yakuniy imtihondan o'tolmasa, reyting daftarchasiga baho

” **Talaba 45-49 foiz oraliqida ball to'plasa, shubhasiz, u uchinchi darajali sharaflil diplomni qo'lga kiritadi. 40-44 foiz oraliqida ball to'plagan talabalar esa oddiy darajali (Ordinary degree/Pass) diplom oladilar. Mabodo umumiy o'rtacha ball 40 foizdan past bo'lsa, talabalarga bakalavr darajasi taqdim etilmaydi.**

bilan birga talabaga moddiy zarar ham yetkazmaydi. Eng muhimi, yakuniy imtihonlar onlayn tarzda jamoatchilik kuzatuv asosida o'tkazilsa, shaffof va korrupsiyadan xoli bo'ladi. Hozir Toshkent davlat sharqshunoslik va Yuridik universitetlarida rasman kredit-modul tizimiga o'tilgan bo'lsada, hanuz eski tizimga amal qilinayapti, ya'ni bitta fan imtihonidagi muvaffaqiyatsizlik, barcha fanlarni qayta o'qishga sabab bo'lyapti.


– O'zbekiston oliy ta'lim tizimini isloh qilishga oid takliflaringiz...

– Menimcha, har bir OTM o'z veb-saytida avvalgi bitiruvchilarning ish bilan ta'minlanganlik darajasi haqida ma'lumotni e'lon qilib borishi kerak. Bu yondashuv bir tomondan universitetlarning qanchalik talabga javob beruvchi kadrlar tayyorlayotganini ko'rsatsa, ikkinchidan, oliygohlar o'rtasida raqobatbardoshlikni oshiradi. Shuningdek, bu abituriyentlar uchun asosiy tanlov indikatorlari vazifasini ham o'taydi. Ya'ni, maktab bitiruvchilari ko'rsatkichi past bo'lgan universitetlarga kam hujjat topshiradi. Shundan kelib chiqib, OTM asosiy e'tiborni malakali kadrlar tayyorlash va ta'lim sifatini oshirishga qaratadi. Talabalarimiz kelajakda ish bilan ta'minlanishida universitetlarga qo'shimcha majburiyat yuklash ham to'g'ri yondashuv emas, nazarimda. Rivojlangan davlatlar, xususan, Britaniya tajribasiga ko'ra, universitetlarga hukumat tomonidan talabalarni kelajakda ish bilan ta'minlanishida qo'shimcha yuklamalar yuklanmaydi. Bunday qo'shimcha vazifalarga asosiy ishdan chalg'ituvchi omil sifatida qaraladi.

Mahbuba KARIMOVA suhbatlashdi.

qo'yilmaydi. Bu talabani kursdan kursga qolishiga sabab bo'lishi mumkin. Britaniyada bu tizim qanday?

– To'g'ri, yuqorida aytganimgdek, bizda talaba bitta fanning yakuniy imtihonlaridan o'ta olmasa, u kursdan kursga qoladi va keyingi yil barcha fanlarni qayta o'qishga majbur bo'ladi. Natijada talaba barcha fanlar uchun kontrakt to'lovini yana to'lashi lozim. Britaniya va Yevropa tajribasida talabaga imtihondan o'tolmagan fanigagina keyingi yil qayta o'qish imkoniyati beriladi. Bunda OTMda to'loviga kredit-modul tizimiga o'tish tajribasini misol qilib keltirish mumkin. Jumladan, kredit-modul tizimiga o'tilgan taqdirida, talaba faqat yiqilgan fani uchun kontrakt pulini to'laydi va bir vaqtda keyingi kursga o'tish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ushbu tizim talaba va baholovchi o'qituvchi o'rtasida xolislikni ta'minlash



Prezidentimiz har gal Farg'onaga tashrif buyurganlarida yangi taklif va g'oyalari berib, viloyat mutasaddilari oldiga qat'iy vazifalar qo'yadilarki, bular zamirida oddiy odamlarni rozi qilish maqsadi mujassam ekanidan viloyat ahli doimo mamnun bo'ladi.
Yodimda: o'tgan yilning may oyidagi tashriflari davomida farg'onalikalarga haqli bir savolni bergandilar: Bugun tariximizga munosibimizmi? Bugun xuddi shunday shahv va iftixor bilan kimlarning nomlarini sanay olamiz?



ASHRI FORASIDA

Ma'lumki, qadimdan ilm-u ma'rifat o'choqlaridan biri bo'lib kelgan vodiyda Al-Farg'oniy, Burxoniddin Marg'iloniy kabi allomalar, Amiriy, Uvaysiy, Nodirabegim, Huvaydo, Xaziniy, Zavqiy, Muqimiy, Furqat, Gulxaniy, Usmon Nosir, Abdulla Qahhor, Qori Niyoziy, Aziz va Laziz Qayumovlar, Erkin Vohidov kabi chinakam yurt farzandlari kamol topganlar.

Aytish mumkinki, vodiy ahli uzoq tarixi bilan birga yaqin o'tmishdagi Tamaraxonim, Halima Nosirova, Saodat Qobulova, Mukarrama Turg'unboyeva, Jo'raxon Sultonov, Ma'murjon Uzoqov, Rasulqori Mamadaliyev, Tavakkal Qodirov, Murodjon Ahmedov, Hamza Umarov, Nabi Rahimov singari «Vodiy gavharlari» bilan ham haqli ravishda g'ururlanadilar.

Azaldan Buyuk ipak yo'lida joylashgan vodiy o'zining zargarlar-u kitobat ustalari, qandolatchilar-u kosiblari, nonvoylar-u, dehqonlari, naqqoshlariyu sirchilari hamda ularning hunar va san'ati bilan ham dunyoni maftun qilgan. Ayni paytda 3.5 milliondan ortiq aholi istiqomat qilayotgan viloyatda korxonalar soni 12 mingtaga yetkazilishi natijasida 55 ming nafardan ziyod tadbirkorlarga faoliyat yuritish imkoniyati yaratildi.

Agar 2016-yili yalpi hududiy mahsulot 17.2 trln. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda bu raqam 55.9 trln.ga

yetdi. 2016-yilda 8 trln. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lsa, 2022-yilga kelib 30.9 trln. so'mlikdan iborat bo'ldi. Viloyat iqtisodiyotiga jalb etilgan 957,4 million dollarlik investitsiya mablag'lari ham aholi turmush darajasini yaxshilashga xizmat qilayotir. 2022-yili farg'onalik mirishkorlar ham salmoqli natijalarga erishdilar. Xususan, ular tomonidan 3.5 mln. tonna meva-sabzavot yetishtirilib, 20 dan ortiq mamlakatlarga (260 000 000 dollarlik) eksport qilindi. Qayd etish joizki, birgina Oltiariq tumanidagi tap-taqir dashtda 1000 gektarlik uzumzor tashkil etildi. Jami 7456 gektar yer o'zlashtirilib, 300 mingdan ziyod yangi ish o'rinlari yaratildi. E'tiborli jihatlardan yana biri – 2022-yilning birinchi yarmida aholining uy-joyga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun «Bog'dod» tajribasi asosida 7956 xonadonli 200 ta ko'p qavatli uy joylar qurildi. Shuningdek, uzoq yillar davomida muammo bo'lib kelayotgan So'x, Shohimardon, Cho'ng'ara chegaralari aniq belgilanib, bu borada ham aholi e'tirozlariga chek qo'yildi.

Biydek dashtda – Qo'shtepa va Quvasoyda bunoyd etilgan yirik korxonalar qurilishi hisobiga esa minglab vodiyliklar ish bilan ta'minlandilar. Davlatimiz rahbari o'tgan galgi tashriflarida aholining tibbiy savodxonligini oshirish, ularni sifatli tibbiy xizmat bilan qamrab olish masalasiga

ham alohida e'tibor qaratgan edilar. Shundan keyin Farg'onada zamonaviy uskunalar bilan ta'minlangan, 10-klinika va institutdan tarkib topgan «MERIDIAN» tibbiyot klasteri qad rostladi.

Bugun Farg'ona yirik ekspertchilar viloyatiga ham aylanyapti. Masalan, birgina Quvasoy «ART SOFT KERAMIK XOLDING» korxonasi ishlab chiqarayotgan mahsulotlarining 50 foizi Xitoyga, Rossiya va Qozog'istonga eksport qilinayotir. Qolgan esa aholi ehtiyojlari uchun mahalliy bozorlarda sotilyapti. Ayni payt viloyatda 35 ta klaster xo'jaligi ham ish yuritayotganini aytish mumkin.

Davlat yetakchisining bu safargi tashriflarida ham vodiy ahlining farovonligiga xizmat qiladigan o'nlab loyihalar muhokama qilindi. Shuningdek, «Hazrat Burhoniddin Marg'iloniy nomidagi xalqaro ilmiy markaz tashkil etish va Marg'ilonda 450-500 o'rinli «Maqom teatri» qurish taklifi ilgari surildi.

Bir so'z bilan aytganda, Prezident tashrifi ko'ngillarni quvontiradigan, odamlarning kelajakka bo'lgan ishonchini orttiradigan, eng muhimi, zafarlar sari yorug' yo'llar belgilaydigan tashriflardan biri bo'ldi.

Farida BO'TAYEVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati

Ta'lim

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING HUDUDIY BO'LINMALARI MAHALLIY HOKIMLIK TUZILMASIGA O'TKAZILADIMI?



Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hududiy bo'linmalari mahalliy hokimliklar tuzilmasiga o'tkazilayotgani bo'yicha ijtimoiy tarmoqlarda tarqalayotgan xabarlar yuzasidan vazirlik rasmiy munosabat bildirdi.
Ta'kidlanishicha, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va mahalliy hokimliklar mas'uliyatini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni loyihasida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining hududiy bo'linmalarini mahalliy hokimliklar tuzilmasiga o'tkazish qayd etilgan.
Ushbu hujjat loyihasini tegishli vazirlik va davlat idoralari bilan kelishish uchun Adliya vazirligi tomonidan normativ-huquqiy

hujjatlar loyihasini ishlab chiqish va kelishishning yagona elektron tizimi – project.gov. uzga joylashtirilgan.
Ushbu normativ-hujjat hozirda loyiha bo'lib, rasmiy kuchga ega emas. Ayni damda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan Farmon loyihasidagi tegishli bandlar bo'yicha e'tiroz bildirilib, Adliya vazirligi bilan muzokaralar o'tkazilgan.
Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining hududiy bo'linmalarini mahalliy hokimliklar tuzilmasiga o'tkazilayotgani bo'yicha soha xodimlari va keng jamoatchilik vakillarining xavotiriga o'rin yo'qligini ma'lum qilamiz, deyiladi munosabatda.

O'ZA

Kuting!

SUVSIZLIK MUAMMOSI YAQINMI?



Ehtimoliy prognozlar 2050-yilga borib qurg'oqchilik dunyoning to'rtidan uch qismiga ta'sir qilishini ko'rsatmoqda. O'zbek olimlari esa yaqin 20 yil ichida O'zbekistonda suvga bo'lgan talab sezilarli oshishi va mavjud suv resurslari keskin kamayishini ta'kidlashmoqda. Bu joriy suv tanqisligi besh barobarga oshadi va O'zbekiston suv tanqisligi bo'yicha qizil hududlar qatoriga qo'shiladi, degani. Jahon banki ekspertlari tadqiqotlariga ko'ra, 2050-yilga borib Sirdaryo havzasida suv resurslari 5 foizga, Amudaryo havzasida 15 foizga kamayishi kutilmoqda...

Kelgusi sonlarda

Ishchi-xodimlarning samarali mehnat qilishlari uchun barcha sharoitlar yaratib berilgan bo'lib, 1 ta avtobus, 20 ta «Damas» hamda 5 ta yengil avtoulavlar hunarmandlar xizmatida.

MARG'ILON HUNARMANDCHILIGI

YANADA RIVOJLANMOQDA

Buyuk ipak yo'lida joylashgan Marg'ilon azaldan hunarmandlar shahri sifatida shuhrat qozongan. Bugun ham bu yerdagi ipak matolari butun dunyoni hayratga solib kelmoqda. Shubhasiz, turizm rivoji uchun milliy hunarmandchilik muhim ahamiyatga ega.

Ayni paytda Marg'ilon shahrida o'n mingdan ortiq fuqaro hunarmandchilik bilan shug'ullanadi. 565 nafar hunarmand esa «Hunarmand» uyushmasiga a'zo bo'lib, milliy matolar – adras, atlas tayyorlash, tikuvchilik buyumlari ishlab chiqarish, yog'och o'ymakorligi, do'ppido'zlik, to'ncilik, temirchilik, misgarlik kabi yo'nalishlarda faoliyat yuritmoqda. O'tgan yili Marg'ilon shahriga Butunjahon hunarmandlar kengashi qarori bilan «Jahon ipak va ikat hunarmandlari shahri» maqomi berildi. Marg'ilon Butunjahon hunarmandlar kengashining «Hunarmand shaharlar» ro'yxatiga O'zbekistondan qo'shilgan 3-shahar bo'ldi. Shuningdek, biz kimlarning avlodi ekanligimizni namoyish etishdir. Majmuada biz ikki, uch yuz yil avvalgi davr muhitini yaratishga harakat qildik va bunga erisha oldik ham deyman. Binodagi eshiklar, xonalarga joylashtirilgan ko'plab buyumlar, noyob osori-atiqalar va oyoq ostiga to'shalgan g'ishtlar ham ikki-uch asrlik tarixga ega. Qadimgi eshiklarga solingan o'yma naqshlar hamda me'morchilik namunalari otabobolarimizning bu boradagi yuksak mahoratlarini o'zida aks ettirgani bilan ham qadrlidir. Prezidentimiz Farg'ona viloyatiga tashrifi chog'ida ushbu markazda bo'lib, bu yerda amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari bilan yaqindan tanishdilar. Biz, albatta, bundan juda-juda quvondik. Yurtboshimizning bizga bo'lgan ishonch va e'tiborlaridan ruhlanib, yuksak maqsadlarni, rejalarini belgilab oldik. Mahsulotlarimiz sifatini oshirib, eksport salohiyatini

to'qish, kashtado'zlik, misgarlik kabi xalq hunarmandchiligi xonalari, ikkinchi qavatida esa mehmonxonalar va oshxona joylashgan. E'tiborli jihati shuki, binoning qurilishida, undagi barcha xonalar, hatto oshxonani jihozlashda ham milliy hunarmandchilik buyumlari va matolaridan foydalanilgan. – Milliy qadriyatlar har bir millatning o'tmishi, buguni va kelajagini ko'rsatib turuvchi oyna misolidir, – deydi maskan rahbari Ibrohimjon Sultonov. – Maqsadimiz bu yerga tashrif buyurgan sayyohlarga o'zimizning milliy hunarmandchiligimizni, qadriyat va urf-odatlarimizni, shu bilan birga, xalqimiz ijodkorligi, yaratuvchanligini, shuningdek, biz kimlarning avlodi ekanligimizni namoyish etishdir. Majmuada biz ikki, uch yuz yil avvalgi davr muhitini yaratishga harakat qildik va bunga erisha oldik ham deyman. Binodagi eshiklar, xonalarga joylashtirilgan ko'plab buyumlar, noyob osori-atiqalar va oyoq ostiga to'shalgan g'ishtlar ham ikki-uch asrlik tarixga ega. Qadimgi eshiklarga solingan o'yma naqshlar hamda me'morchilik namunalari otabobolarimizning bu boradagi yuksak mahoratlarini o'zida aks ettirgani bilan ham qadrlidir. Prezidentimiz Farg'ona viloyatiga tashrifi chog'ida ushbu markazda bo'lib, bu yerda amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari bilan yaqindan tanishdilar. Biz, albatta, bundan juda-juda quvondik. Yurtboshimizning bizga bo'lgan ishonch va e'tiborlaridan ruhlanib, yuksak maqsadlarni, rejalarini belgilab oldik. Mahsulotlarimiz sifatini oshirib, eksport salohiyatini

yuksaltirish, shu bilan birga, shahrimiz hunarmandlarini bir joyga jamlab, ish o'rinlarini yanada ko'paytirish ustida ishlaymiz. O'zbek milliy hunarmandchiligini, milliy qadriyatlarimizni butun dunyoga tanitishga bor bilim va kuch-g'ayratimizni ishga solamiz, deb, xalqimizni ishontiramiz. Mazkur maskanda 150 nafar hunarmand faoliyat ko'rsatmoqda. Ishchi-xodimlarning samarali mehnat qilishlari uchun barcha sharoitlar yaratib berilgan bo'lib, 1 ta avtobus, 20 ta «Damas» hamda 5 ta yengil avtoulavlar hunarmandlar xizmatida. Shuningdek, xodimlarning yosh farzandlari uchun ham alohida xona tashkil etilgan. – Momolarimiz hunarini davom ettirayotganimdan faxrlanaman, – deydi gilam to'qish ustasi Xolidaxon Turdaliyeva. – Gilamchilik va to'qimachilik shahrimiz kabi qadimiy va faxrli kasblardir. Dunyoning rivojlangan davlatlarida qo'l mehnati bilan tayyorlangan mahsulotlar juda qadrlanadi va qimmat narxlarda baholanadi. Markazimizda mahsulotlarimizning sifati yuqori. Asl ipakka tabiiy bo'yoqlardan gul chizib, mato to'qiladi. Shu bois ham bu mahsulotlar xaridorgir. Biz to'qigan gilamlar, asosan, Turkiyaga, atlas, adras matolar esa qo'shni mamlakatlarga eksport qilinmoqda. Ko'hna moziy ko'rinishini o'zida mujassam etgan ushbu maskan tashrif buyuruvchi har bir sayyoh qalbiga xalqimizning ijodkorligi, asrlar sinovidan o'tgan hunarmandchilik salohiyatini muhrlashiga xizmat qiladi.

M.SULAYMONOV, O'ZA



Yana ozgina kuting!

MIJOZLARGA ERTAK AYTAYOTGAN BANK

YOKI «ALOQABANK»
BILAN ALOQAMIZ
UZILGAN
BO'LSA-DA, ALOQADA
QOLAYOTGANLARNI
OGOHLANTIRIB
QO'YISH KERAK DEB
HISOBLADIK

Kelgusi sonlarda

INSON HUQUQLARI SOHASIDAGI TA'LIMNI RIVOJLANTIRISHGA KATTA E'TIBOR QARATILMOQDA

Mamlakatimizda inson huquqlari sohasidagi ta'limni rivojlantirishga yo'naltirilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, Prezident Shavkat Mirziyoyevning «O'zbekiston Respublikasida inson huquqlari sohasidagi milliy ta'lim dasturini tasdiqlash to'g'risida»gi qarori qabul qilindi. Qaror bilan inson huquqlari sohasidagi ta'lim bo'yicha dolzarb masalalarni har tomonlama o'rganish, ilg'or xorijiy tajribani tahlil qilish hamda keng jamoatchilik muhokamasi, xalqaro va milliy maslahatlashuvlar natijasida ishlab chiqilgan O'zbekiston Respublikasida inson huquqlari sohasidagi Milliy ta'lim dasturi va ushbu dasturni amalga oshirish bo'yicha «Yo'l xaritasi» tasdiqlandi.

Shu ma'noda O'zbekiston Prezidentining yangi qarori birinchi marta insonning asosiy huquqlarini himoya qilish zarurligini e'lon qilgan nufuzli xalqaro-huquqiy hujjat – inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganining 75 yilligini nishonlash bo'yicha 2022-yil 10-dekabrda boshlangan butun dunyo miqyosidagi kampaniya davrida qabul qilindi.

Inson huquqlari sohasidagi ta'lim keng tamoyilga asoslanadi hamda o'quvchilarning ehtiyojlariga yo'naltirilgan bo'lib, ularga tanqidiy tahlil va amaliy faoliyat uchun zarur bo'lgan bilim va muhim ko'nikmalarni beradi. Bu o'z huquqlari to'g'risida bilish va himoya qilish, ta'minlanishi uchun mas'ul hokimiyat vakillariga va boshqa shaxslarga ushbu majburiyatlarni bajarish qanchalik muhimligini tushunishga yordam beradi.

Bu insonlarning hayotiga ta'sir etuvchi barcha – siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik – qarorlar qabul qilish jarayonlarida to'la huquqli ishtirokini ta'minlash hamda huquqbuzarlik, zo'raonlik va nizolarning oldini olish uchun o'ta muhim ahamiyatga ega.


Qarorning asosiy maqsadlaridan biri – inson huquqlari sohasidagi Jahon ta'lim dasturining to'rtinchi bosqichida belgilangan vazifalarni samarali va o'z vaqtida amalga oshirishdir.

Ma'lumki, inson huquqlari sohasida ta'lim haqidagi qoidalar ko'plab xalqaro me'yoriy-huquqiy hujjatlarga kiritilgan bo'lib, 2004-yilning 10-dekabrda BMTning Bosh Assambleyasi barcha sektorlarida inson huquqlari

sohasidagi ta'lim dasturlarini amalga oshirishga ko'maklashish maqsadida inson huquqlari sohasidagi Jahon ta'lim dasturi e'lon qilindi. Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissar boshqarmasi Jahon ta'lim dasturining global darajada muvofiqlashtirishni amalga oshiradi.

Inson huquqlari sohasidagi Jahon ta'lim dasturi BMTning inson huquqlari sohasidagi ta'lim va tarbiya to'g'risidagi deklaratsiyasini milliy darajada amalga oshirishni faollashtirishga xizmat qiladigan foydali vositadir.

Jahon ta'lim dasturi barcha sektorlarda inson huquqlari sohasida ta'lim dasturlarini amalga oshirishga ko'maklashish maqsadida ketma-ket bosqichlar asosida tashkil topgan, doimiy amalga oshiriladigan tashabbus bo'lib, a'zo davlatlar inson huquqlari sohasidagi ta'limni boshlang'ich va o'rta maktab tizimida, oliy ta'lim tizimida hamda o'qituvchi va targ'ibotchilar, davlat xizmatchilari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari va barcha darajadagi harbiylar, shuningdek OAV vakillari uchun inson huquqlari sohasidagi ta'lim dasturlarida joriy etib borishlari kerak.



Inson huquqlari bo'yicha ta'lim, bu – yangilanishlar manbai, faol fuqarolar sifatida yoshlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish, o'z huquqlari va boshqalarning huquqlarini himoya qilish uchun muhim strategiya hisoblanadi. Jahon ta'lim dasturining to'rtinchi bosqichidagi harakatlar rejasidan yakuniy xulosa va olg'a intilish uchun qo'llanma sifatida foydalanish yo'li bilan yoshlar uchun hamda yoshlar ishtirokida inson huquqlari sohasida ta'limni amalga oshirish bo'yicha sa'y-harakatlarni

kuchaytirish tinch, adolatli va barqaror kelajakka qo'shilayotgan muhim hissa hisoblanadi.

Ta'kidlash lozimki, inson huquqlari sohasidagi ta'lim O'zbekiston Respublikasida inson huquqlari madaniyatini shakllantirishga oid davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

Shahlo SAFAROVA,
Inson huquqlari bo'yicha
O'zbekiston Respublikasi
Milliy markazining tayanch
doktoranti

Diqqat: Saylov!



**"MILLIY TIKLANISH"
DEMOKRATIK PARTIYASI**

**YOSHLAR
PARLAMEN TI**


O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi a'zolari uchun o'tkazilayotgan saylov jarayonining dastlabki saralash bosqichi haqida ma'lumot

36 TA OKRUG


42 TA TUMAN (SHAHAR)

Partiya Markaziy kengashi va partiyaning hududiy Kengashlarida saylovlarni o'tkazish bo'yicha saylov shtablari tashkil qilindi.


NOMZODLAR MUTAXASSISLIGI



NOMZODLAR MA'LUMOTI



YOSH KO'RSATKICHI



6-fevral holatiga saylovda ishtirok etish istagini bildirgan

1273 NAFAR YIGIT-QIZ hujjat topshirdi.


484 NAFAR

38% ayol



62% erkak

789 NAFAR



0,6%



7 NAFAR NOMZOD ilmiy darajaga ega
445 NAFAR NOMZOD partiya a'zolari
828 NAFAR NOMZOD partiya xayrixohlar
20 NAFAR NOMZOD partiya xodimlari

NOMZODLARNING MILLATI BO'YICHA TARKIBI

1273 NAFAR 20 NAFAR turli millat vakili

346 NAFAR SARALANGAN NOMZODLAR
ro'yxati Saylov hay'atiga baholash uchun tavsiya etildi.

Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqidan

WAZIYATGA



Ural HAITOV,
siyosatshunos



TARBIYA BAXT,

Muarriflarning yozishlaricha, Suqrotning butun faol umri davomida Ovidiyning «Evrilish» asarida tilga olingan inson xulq-atvoridagi bir noqislik ko'p bezovta qilgan ekan.

Ovidiy o'z asarida shunday yozadi: «Ezgulikka duch kelsam, maqtayman-u ammo yomonlikning ta'siriga berilaman». Shu sababdan bo'lsa kerak, buyuk faylasuf yoshlar odob-axloqi haqida ko'p qayg'urgan, ularning axloqi buzilib ketayotganidan aziyat chekib, o'z chiqishlarida yoshlar tarbiyasiga bot-bot murojaat qilgan.

Bu gaplardan voqif ayrim zamondoshlarimiz «Bundan ikki ming yil burun Suqrot ham yoshlarning tarbiyasi buzilib ketayapti, deb jar solgan ekan. Qani buzilgani, o'sha yoshlar, hech narsa o'zgarmagan, qaytanga madaniylashdik, shunday emasmi, o'zimiz ham yoshlikda qanday edik, aytting, qanday edik? Xudoga shukur, mana hammasi risoladagidek...», deya o'z qarashlarini ma'qullamoqchi bo'ladi. Ammo afsuslar bo'lsinki, bugun qulog'iga sirg'a taqib, badanini rasmlar galereyasiga aylantirib olgan ba'zi bloggerlar ma'naviyatga tosh otishni kasb qilib olishdi. Ularning go'yoki tasha tegmagan «idda»lari ta'siriga berilayotganlar esa kimning chig'irig'iga suv purkayotganlarini hatto his etmayaptilar ham. O'shanday bloggerlar «mijoz»lari ko'paygani ortidan kelib tushayotgan jaraq-jaraq pullarini sanash bilan ovora... Men buzilib ketmagan, qaytanga madaniylashgan suhbatdoshimga qarab: «Xayriyatki, insoniyat paydo bo'lganidan beri tinimsiz tarbiyaga urg'u berib keladi. «Dunyo qurg'ur qalqib...» turgan bo'lsada nima uchun joyida turibdi, nima uchun u madaniylashib bormoqda, ma'naviyat, odob-axloq tushunchalarining borligi, tarbiyaga qaratilayotgan e'tibor, davlat siyosatining

ustuvor yo'nalishi sifatida qaralgani bunga sababdir. Siz va biz, mayli, yo'limizdan adashmadik. Lekin biz tengilar orasida ham adashganlari qancha? Ana shunday adashdiganlarni kamaytirish kerak, yo'q bo'lsa undanda yaxshi» deyman. Muqaddas dinimizga e'tiboringizni tortaman: «Biz uchun muqaddas bo'lgan Islom dinida ham tarbiya masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Payg'ambarimiz (s.a.v.): «Birortangiz o'z farzandlarini tartib-intizomga o'rgatsangiz, bu har kuni sadaqa bergandan yaxshiroqdir» degan marhamatlari ota-onalarga farzandlarini ta'lim-tarbiyaga,

«Ilm olish har bir musulmon va musulima uchun farzdur», degan marhamatlari esa o'g'il va qizlarimizning o'zlarini ilm olishga yo'naltirishga xizmat qilyapti, albatta. Imom Buxoriyning «Al-Adab al-mufrad» asarida to'plangan hadislar aslida insoniyatning odob-axloqiga bag'ishlangan tartib-taomillardir. Bir o'qib chiqing, mazza qilasiz». Tarbiya sabab odam inson darajasiga ko'tarildi deguvchilarning gaplarida ulkan ma'no bor. U uzluksiz bo'lishi va bu jarayon qaytmasligini ta'minlaydi. Darhaqiqat, tarbiyada tanaffus qilib bo'lmaydi, u tinimsiz harakatni talab qiladi, sal bo'sh qo'ydingizmi, bo'shliq paydo bo'ladi. Bu boradagi ishlarimizning samarasini o'rganib borishning ahamiyatini esa ta'kidlashga hojat bo'lmas kerak. Yoshlar tarbiyasi haqida gap ketganda, avvalo, biz oldin ularga qulay sharoitlar yaratishimiz, ularning huquq va manfaatlarini ta'minlash masalasiga e'tibor qaratishimiz zarurligini ta'kidlash joiz. Bu borada mamlakatimizda qirqdan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, 30 dan ortiq xalqaro hujjatlar ratifikatsiya qilingan. «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi Qonun yoshlar hayotining barcha qirralarini

qamrab olgani bilan ham ahamiyatlidir. Keyingi besh-olti yil ichida esa tarbiyaga bo'lgan e'tibor yanada kuchaydi. Maktabgacha ta'limga bolalarni qamrab olish 23 foizdan qariyb 80 foizga yetkazildi. Xo'sh, bu sonlar nimani anglatadi? Demak, biz bog'cha yoshidagi aksariyat bolalarni tarbiya bilan qamrab oldik. Buning natijasi esa 20 yillarda

YOSHLARNI OLIY TA'LIM BILAN YANADA KENGROQ QAMRAB OLISH, SHU MAQSADDA QAMROVNI

50 FOIZGA YETKAZISH, OLIY TA'LIM TASHKILOTLARI O'RTASIDA SOG'LOM RAQOBATNI KUCHAYTIRISH

MASALALARIGA HAM ALOHIDA URG'U BERILMOQDA

seziladi nasib, hayotimizda tarbiya ko'rgan, madaniyatli yoshlar salmog'i ham oshadi, albatta. Maktablarimizda ta'lim-tarbiyani tashkil etish uchun Milliy dastur qabul qilinishining o'zi mamlakatimizda tarbiya uchun sharoitlar yaratish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiya berish masalasi o'z dolzarbligini yo'qotmasligi dalolati hamdir. Yoshlarni oliy ta'lim bilan yanada kengroq qamrab olish, shu maqsadda qamrovni 50 foizga yetkazish, oliy ta'lim tashkilotlari o'rtasida sog'lom raqobatni kuchaytirish masalalariga ham alohida urg'u berilmoqda. Ishxonamga o'quv amaliyotlarini o'tash uchun milliy, til va adabiyot, sharqshunoslik universitetlari hamda islom akademiyasi talabalari kelib turishadi. Suhbatlar orasida ularning o'qishga qanday kirganliklari bilan qiziqaman. «Yo'-o'q, o'z kuchimiz bilan kirdik.

Kirishda muammo yo'q...». Ammo ular muammo yo'q so'zini biroz qiyinalibroq aytishadi. Men baralla, domlalarimiz, deyimim bilan, «Yo'q, yo'q», deya shoshib qolishadi. Tushunarli, deb qo'yaman. Ular bilan suhbatlashib, tarbiya borasida olib borayotgan ishlarimizdan qoniqish hosil qilaman. Chunki ko'plari odob-axloq mezonlariga amal qilishadi, bilimlari keng,

dunyo sinoatlarini yaxshi anglashadi. O'smoqchilab bergan savollaringizga adashishmaydi, kutilgan javoblarni olasiz. Maqsadlarini so'rasangiz yaxshi o'qish, yaxshi mutaxassis bo'lish, oila, bola-chaqa, xullas, qush uyasida ko'rganini qiladi maqoliga amal qilayotganlari seziladi. Aksariyat yoshlar orzularida o'qishni davom ettirish, dalolati hamdir. Bunday yoshlar uylanishga shoshilmayapti, ammo til o'rganishga qattiq kirishgan. Har qadamda qishloqda til o'rganish imkoniyatlari deyarli yo'qligidan afsuslanishadi. Shu yerda bir narsani ta'kidlab o'tish o'rinni: yoshlarimizning til o'rganishlariga davlat ham befarq emas. O'ddiy misol, 2022-yilda davlat dasturi ijrosi doirasida yoshlarni chet tillarini o'rganishga qiziqitirish, ularning intilishlarini

rag'batlantirish maqsadida 30 mingdan ortiq yoshlar treninglarga jalb etilgan va bugungi kunga qadar Xalqaro imtihon tizimlari bo'yicha yuqori ball (daraja) to'plagan jami 10 ming 299 nafar yoshlarga 18,1 mlrd. so'm miqdoridagi imtihon topshirish xarajatlari to'lab berilgan. Lekin 11 yil o'qib chet tilidan «ch» harfini bilmasdan chiqish, ayniqsa, qishloq joylarda, hech bir qolipga sig'maydi, albatta. Bu gapdan keyin siz, unda o'qitishning nima keragi borligi haqida savol berishingiz tayin. Bunda til o'rgatishning zamonaviy usullarini joriy etish dolzarb ekanini ta'kidlasak to'g'ri bo'ladi.

Endi navbatdagi savolga o'tsak: xo'sh, «surish»ning nimasi achinarli? Achinarligi shundaki, bunda bola muayyan tayyorgarliksiz o'zini tim qora o'rmonga urayotganini his qilmayapti. Ularning til bilmagani, kasb-kori yo'qligi achinarli. Boradigan joyining qonun-qoidalarini, odamlarining xulqi-odobi, urf-odatlarini oz bo'lsa-da o'rganmagani, bilmagani achinarli. Eng yomoni, mo'ljalga olingan joyda to'xtaydigan aniq manzil, kutib oladigan biror tanish kishining yo'qligidir. Keyingi paytlarda yoshlar ishtirokidagi tadbirlarda volontyorlikka qiziqish kuchayib borayotganligi ko'zga tashlanayapti. «Sehrlidiyor»ga «Green card» olishda til bilish barobarida volontyorlik faoliyati bilan shug'ullanishiga ham e'tibor qaratilgan ekan. Yoshlarning o'zlarining beg'araz xizmatlarini bizga taklif etayotganlarining sababiga ham e'tibor qaratdim, vazirlikda ishlaydigan, kamiyob mutaxassis hisoblangan bir qizimiz ham xorijga «surmoq»chi ekanini yashirmadi. Yoshi o'tayotganiga qaramasdan haligacha turmushga chiqmagan. Uning uzoqlardan baxt izlayotgani sababi bilan qiziqdim, ochig'i, uning vajlari qoniqarli emas. U bilan



TARBIYASIZLIK FOJIADIR

subhatlasha turib, «Sannikov yeri» kinoidagi qahramonning faqat «mo'jiza» tufayliga tirik qolgan ko'z o'ngimdan o'tdi. Keyin Kitob tumanining tog'li Denovbola qishlog'idagi bir oqsoqol bilan subhatimiz yodimga tushdi. Oqsoqol salmoqlab, «bizda shu paytgacha oila buzilishi kuzatilmagan, bundan keyin ham bo'lmaydi, udumlarimizni qattiq ushlamaymiz, mana shu oqsoqollar bilan bir bo'lib, bularni yo'lga solib turamiz, to'y'larda ham katta xarj qilishlariga yo'l qo'ymaymiz», degan edi. Gaplaridan yoshlarga so'zi o'tishi yaqqol sezilardi o'sha otaxonning. «Yoshlar orasida ishlab kelish maqsadida chetga chiqqanlari bor, hoy-u havas bo'ladi-da yoshlarda, borgandan keyin moslasholmaydi, uch-to'rt yilda qaytib kelib, qishlog'imizda muqim turib qolishmoqda. Mana qarang, yong'oqzor, olmozor bog'lar keng maydonga chiqib kartoshka yetishtirsin, marhamat, davlat ruxsat berib qo'yibdi, hosilini yig'ib olib, yiliga 100 mln.gacha daromad qilganlar bor».

Yoshlarni xorijiy yurtlarda quchoq ochib kutib oluvchilar borligiga ishongim kelmaydi. Borgandan keyin o'zlarini ham buning ishonch hosil qiladilar. Oqsoqol aytganday sharoit yaratib berilsa, kim ham borardi begona yurtlarga. 2022-yilda respublikamizda 174 ming 598 nafar yoshlarga dehqonchilik faoliyati uchun 36 ming 335 gektar ekin maydonlari berilibdi. Yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va shu yo'l bilan ular bandligini ta'minlash maqsadida 121 ming 731 nafar yoshlarga 2 trln. 894 mlrd. so'm imtiyozli kredit ajratilibdi. Amaliyotga kelgan talabalar o'qishni bitirgandan keyin o'z sohosi bo'yicha ish topish qiyinligidan hasrat qilib qolishadi. «Unda nimaga o'qiyapsizlar?». Odatda bunday savoldan keyin yaxshi niyatda oliy ma'lumot olish kerak-ku, degan javobni eshitasiz. «Baxt oliy ma'lumot olishda emas-uz, biror kasb-hunar egallash haqida ham o'ylamayapsizlarmi?», deya

yana savol tashlayman. O'ylanib qolishadi...
 Yaqinda televizorda bir qizimiz oliy ma'lumot olganligi to'g'risidagi diplomini, mana o'qdim, vaqtimni, umrimni oldi, axir bu matoh kimga kerak, deb otib yubordi.
 — Ihsiz qolishdan qo'rqmaysizlarmi? — Shuning uchun ham o'qishni davom ettirmoqchimiz, chet elda bo'lsa yana yaxshi...
 To'g'risi, yoshlarning ko'nglini topsangiz ular dilidagini ochiq aytishadi. Oliy ma'lumot olinglar, shu bilan birga, suvoqchimi, bo'yog'chimi, g'isht turuvchimi, duradgorlikmi, xullas, biror kasbni o'rganib qo'yinglar, deb ko'p tayinlayman. Ular miyig'ida kulib, mayli, mayli, deyishadi. Raqobatni unutmanglar, u borqan sari kuchayib boraveradi. O'z ustingizda ishlamasangiz, xas kabi qirg'oqqa chiqib qolish hech gapmas. Ana shunday paytda kasb-hunaringiz asqatadi. Diplomni otmaysiz, kinoyali hazil qilaman. Xoxolab kulishadi.
 Tan olaylik, bugun kasb-hunarga yevrostandartlar darajasida e'tibor qaratilmoqda. Maktablar, kollejlarda, texnikumlarda — kasb-hunar olishning o'ziga xos tizimi yaratilmoqda. Ko'pincha, talabalardan oliy ta'lim huzurida pullik kasb o'rgatish markazlari tashkil etilsa, borarmidigiz deb so'rayman. Kingadir yoqadi bu taklif, boshqalari esa o'ylanib qolishadi, ma'kul kelmaganlari ham topiladi. Ularni faqat keyin afsuslanmanglar, deya ogohlantirgan bo'laman. Eng muhimi, universitet yoki institutdagi yoshlar fikrlamoqdalar, ular nafaqat bugungi kuni bilan yashamoqda, ertalarini ham o'ylashyapti. Demak, tez orada ular hisobidan jamiyatda ongli insonlar ko'payadi. Agar ularga bir, iloji bo'lsa, bir necha kasb-hunar egasi bo'lish imkoniyatini yaratsak, albatta, ularning hayotda o'z o'rinlarini topishlariga bo'lgan ishonchlari yanada ortadi.
 Keyingi yillarda bandlikni ta'minlash borasida ko'p ishlar qilinyapti. Xususan, «Temir

daftari», «Ayollar daftari», «Yoshlar daftari» orqali aholini ish bilan ta'minlash choralarini ko'rilmog'da. 2022-yil Davlat dasturi ijrosi doirasida 3,2 mln. nafar fuqaroning daromadli mehnat bilan bandligini ta'minlangani aytilmoqda. 429 ming nafar fuqaroga esa ijara asosida yer ajratilgan. Shu o'rinda 425 mingta loyiha asosida 9,9 trln. so'm imtiyozli kredit va 75 mingdan ortiq ishsizga 263 mlrd. so'm subsidiyalar berilibdi. 200 ming nafardan ortiq fuqaro kasb-hunar va tadbirkorlik ko'nikmalariga o'qitilgan, 50 mingdan ortiq «mahallabay» mikroloiyhalarining 48 mingtasi ishga tushirilib, 239 mingta yangi ish o'rni yaratilibdi. Bu raqamlarga osonlikcha erishilayotgani yo'q, albatta. Shu o'rinda ma'naviy muhitning buzilishida o'qimayotgan, hattoki, biror-bir kasb-hunarning boshini tutmayotgan yoshlarning ta'siri yuqoriligini ham tan olishimiz joiz. Eng yomoni ana shunday bolalarimizning aksariyati sharoiti og'ir oilalarda voyaga yetgan. Oila muhitning bola qalbiga salbiy ta'siri sababli u maktabni bitirar-bitirmas mehnat muhojirligini tanlaydi. Aslida maqsad ezigu: uylanish, to'y qilish, uy solish va hokazo. Lekin...
 Bir tanishimning o'g'li uch-to'rt yil Rossiyada ishlab keldi, uylandi. Topgan-tutganini faqat to'yga sarfladi. Ya'ni, ko'rpasiga qarab oyoq uzatmadi va bor-yo'g'ini sovurdi. To'y o'tdi, uylov yana ishlab kelishga ketdi...
 Ayrimlarning asosiy maqsadi uyiga kelmasada, chetda ishlab, pulini uyiga yuborish, oilasi esa o'sha pulga uy qurish, bolalarini uylantirish, turmushga berish bilan mashg'ul. Nabiralariga to'y qilishmoqda hamki o'g'illaridan darak yo'q.
 Shunday holatda bir haqli savol tug'iladi: yangi oilada tug'ilgan bolaning tarbiyasi bilan kim shug'ullanadi, topgan-tutganini yeb-ichish, o'ylamasdan sarflash bilan mashg'ul bo'lgan muhit bola tarbiyasiga qanday ta'sir etadi? Tan olish kerak: mehnat muhojirligi jamiyatda ma'naviy-

2022-yil Davlat dasturi ijrosi doirasida 3,2 mln nafar fuqaroning daromadli mehnat bilan bandligini ta'minlangani aytilmoqda. 429 ming nafar fuqaroga esa ijara asosida yer ajratilgan. Shu o'rinda 425 mingta LOYIHA ASOSIDA 9,9 TRLN. SO'M IMTIYOZLI KREDIT VA 75 MINGDAN ORTIQ ishsizga 263 mlrd. so'm subsidiyalar berilibdi.

axloqiy evrilishlarga o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Ajrimlar ko'payishining sabablarini ko'proq shundan izlashimiz lozim. Bunga 2022-yilda nikohdan o'tganlardan ko'ra, ajrimlar ko'p bo'lgani ham misol bo'lishi mumkin.
 To'g'ri, besh qo'l barobar emas, ko'plab yoshlarimiz o'zlarining intellektual salohiyatlari tufayli fan olimpiadalari, sport musobaqalari, ilmiy va boshqa sohalarda katta muvaffaqiyatlarga erishmoqdalar. Olimlar, san'atkorlar, futbolchilar, bokschilar, dzyudochilar xorijiy mamlakatlarda faoliyat olib borib, o'z qobiliyatlarini namoyon etishyapti. Demog'ochimizki, xorijda ishlash uchun aylanma yo'llarda adashib yurish shart emas, buning uchun o'z imkoniyatlaringizni ishga

solsangiz bas! Xorij degan daraxtdan duv-duv takliflar to'kiladi, to'kilmoqda ham. Mutaxassislar fikricha, 2022-yili har bir fuqaroga davlat hisobidan aniq kasb-hunarga o'qish imkoniyati yaratilib, kasbga o'qitish ko'lami 2 baravarga oshirilishi 1 mln. nafar ishsiz fuqaroni kasb-hunarlarga o'qitish imkoniyatini yaratgan. 463 ta mahallada aholini kasb-hunarga o'qitish maskanlari tashkil etilib, 100,4 ming nafar fuqaro kasb-hunarga o'qitish kurslariga va 8,8 ming fuqaro nodavlat ta'lim muassasalariga o'qishga jalb etilgan.
 Shuni alohida qayd etish joizki, davlat tomonidan yoshlarni ish bilan ta'minlash tarbiyaning asoslaridan biri sifatida qabul qilinayotganligi jamiyat to'g'ri yo'ldan borayotganligini anglatadi. Chunki ish bilan band inson bemaza ishlarga vaqt topolmaydi, oilasini, farzandlarini tarbiyalash imkoniyatlarini qidiradi. Bekorchidan Xudo bezor, biror-bir kasb-hunarning boshini tutmagani, qo'lidan ish kelmaydiganlar jamiyat hayoti notinchligiga sabab bo'ladi: o'g'irlikka qo'l uradi, oilasida tinchlik bo'lmaydi, ajrimlar ko'payib, turli guruhlarga kirib ketish xavfi ham kuchayadi, xuddiki, birovning ko'zi uchib turgandek chet ellarni qumsaydi, bir so'z bilan aytganda, inson bolasiga xos bo'lgan qadriyatlar, an'analardan yuz o'g'ira boshlaydi.
 Keyingi paytlarda yuz berayotgan ayrim oilaviy notinchliklar, jamoat joylarida odamlarning bir-biriga nisbatan diqqatsizligi, sabr va shukronaning yetishmasligiga ham aslida tarbiyadagi ayrim noqisliklar sababdir.
 Axborot va so'z erkinligidan noto'g'ri foydalanish ham tarbiyaga salbiy ta'sir etayotgani bor gap. Yopiq axborot dunyosi — og'zi berk jamiyatdan qutulgan inson bizga hamma narsa mumkin, degan kayfiyatdan qutulishi uchun ham vaqt kerakki o'xshaydi. Uning davosi ham aslida tarbiyadir.



Eng katta boylik – bu aql-zakovat
va ilm, eng katta meros – bu yaxshi
tarbiya, eng katta qashshoqlik –
bu bilimsizlikdir.

SHAVKAT MIRZIYOYEV

CHETDA TURISHGA

MAMLAKATNI MARD, FIDOYI YOSHLAR TAFAKKUR VA IJOD QAYNAGAN

Mamlakat qudratiyu, millatning buyukligi eng avvalo, ilm-fan, ma'rifat va ta'lim taraqqiyotiga asoslanadi. Yangi O'zbekistonning ertasi, uning istiqboli ham shubhasiz, ta'lim tizimiga, albatta, yoshlarga va ularga berilayotgan tarbiyaga bog'liq. Hozirgi bosqichda har bir yigit-qizning ilm-ma'rifati, yuksak axloqli bo'lishi bilan birga, uning zamonaviy texnika va texnologiyalarni puxta egallashi uchun qulay sharoitlar yaratish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Yangi O'zbekiston yuksak darajada taraqqiy etayotgan iqtisodiy bilimdon, ma'naiy yetuk farzandlari bilan ham jahonni qoyil qoldirishi kerak, albatta. Bugun mamlakatni mard va fidoyi yoshlar yurtiga, mehr-u shafqat va muhabbat barqaror bo'lgan, tafakkur va ijod qaynagan muqaddas makonga aylantirish yo'lida tub islohotlar olib borilmoqda.

Yurtimizda bir-biri bilan chambarchas bog'langan ta'lim sohasida – maktabgacha ta'lim, maktab ta'limi, o'rta maxsus va oliy ta'lim tizimlari, ilmiy-tadqiqot muassasalarini rivojlantirish bo'yicha ham o'zgarishlar qilinayapti. Shu o'rinda 2025-yilga borib, 3–7 yoshdagi bolalarning 80 foizini maktabgacha ta'lim bilan qamrab olishni nazarda tutuvchi maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi hayotga joriy etilmoqda. Keyingi uch yilda esa kichik yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasini 60 foizga yetkazishga, bog'chalar sonini esa 3 barobar ko'paytirishga erishildi.

Yana bir muhim fakt: bugungi islohotlar pirovardida yana 11 yillik ta'limga qaytdik. Yangi ta'lim muassasalarini qurish, mavjudlarini ta'mirlashga esa alohida e'tibor qaratila boshlandi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan «2022 – 2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturini tasdiqlash to'g'risida»gi farmon va «Xalq ta'limini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qaror imzolandi, 2026-yilgacha 1,9 million o'quvchi o'rni yaratish belgilab berildi. Bu davrda minglab maktablarning elektr energiyasi, ichimlik suvi ta'minoti, isitish tizimi yaxshilandi, oshxonalar, sport zallari boshqa zarur binolar ta'mirlandi yoki yangidan qurildi. «Zamonaviy maktab» dasturi ijrosi jiddiy nazorat qilinayapti.

Mutlaqo yangicha mazmun va shaklga ega bo'lgan Prezident maktablari hamda ijod maktablarini shakllantirish bo'yicha faol ishlar olib borilyapti. Matematika, kimyo-biologiya va boshqa fanlarni rivojlantirish bo'yicha esa maxsus qarorlar qabul qilindi. Har bir tuman va shaharda ana shu fanlarga ixtisoslashgan maktablar tashkil etilmoqda. Murabbiylar mehnatiga munosib haq to'lash bo'yicha ham aniq chora-tadbirlar belgilab olindi.

Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish va yangi sifat bosqichiga ko'tarish yo'nalishlarida ham tizimli ishlar olib borilmoqda. Bugun harbiy va diniy oliy ta'lim muassasalaridan tashqari mamlakatda 159 ta oliy ta'lim muassasasi faoliyat ko'rsatmoqda. Ta'limning bakalavriat, magistratura va sirtqi shakllari uchun kvotalar oshirilib, kechki ta'lim shakli ham joriy qilindi.

Dunyo miqyosida raqobat keskinlashib borayotgan hozirgi murakkab davrda mamlakatni aynan ilm-fan yutuqlari, yuqori texnologiyalar asosida modernizatsiya qilish va yangilash muhim vazifaga aylangani bejiz emas. Shu sababli O'zbekiston Fanlar akademiyasi tizimi qayta tiklanib, yanada takomillashtirildi. Bir qator ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlar faoliyati ham qayta tashkil qilinib, ilmiy laboratoriyalar zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlandi.

Prezidentimiz ta'kidlab o'tganlaridek: «Bularning barchasidan yagona maqsadimiz – maktabgacha ta'lim va maktab ta'limi, oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimi hamda ilmiy-madaniy muassasalarni Uchinchi Renessansning to'rt uzviy halqasiga, bog'cha tarbiyachisi, maktab muallimi, professor-o'qituvchilar va ilmiy-ijodiy ziyolilarimizni esa Yangi Uyg'unish davrimiz to'rt tayanch ustuniga aylantirishdan iborat». Bularning barchasi zamon talablari va

andozalariga javob beradigan, mustaqil fikrlaydigan, o'ziga ishonadigan, ma'naviy jihatdan yetuk, lafzini saqlaydigan, birovning haqqiga xiyonat qilmaydigan, sadoqatli, tafakkuri, ong va shuuri har qanday tazyiqlardan, eng muhimi, qullik mafkurasidan ozod yoshlarni voyaga yetkazishga xizmat qilmoqda. Tarixi, madaniyati, iqtisodiy va qadimiy urf-odatlarini chuqur biladigan, Vatani, xalqining baxt-saodati uchun jonini fido etishga tayyor, nopoklik va adolatsizlikka nisbatan murosasiz kurashadigan yoshlar Yangi O'zbekiston kelajagi desam ayni haqiqatni aytgan bo'laman. Bizning asosiy kuch-qudratimiz va kelajagimiz zo'r umidlar bilan qurayotgan Yangi O'zbekiston jamiyatining mazmun-mohiyati ham ana shundadir.

Shuning uchun ham Yangi O'zbekistonni yaratayotgan, el-yurtimiz sha'ni, Vatani obro'yi yana bir bor sinovdan o'tayotgan bir paytda butun mamlakatimiz ahli ularga katta umid va ishonch bilan qaramoqda. Ma'lumki, har qanday millat va xalq o'z nasl-nasabiyu, kelajak avlodini asrab-avaylab, uning qadrini bilsa, unday millat va davlatning kelajagi buyuk bo'ladi. Zotan, har qanday millatning ravnaqi, umumbashariyat tarixida tutgan o'rni, mavqei va shuhrati bevosita o'z farzandlarining aqliy va jismoniy yetukligiga bog'liqdir.

Yangi O'zbekistonda yangicha fikrlaydigan, yangilikka chanchoq, zamonaviy sohalarni chuqur anglab yetadigan yoshlarni tarbiyalash, ularni rahbarlik lavozimlariga ilgari surish vaqti keldi. Shuning uchun ham barcha bo'g'inlarga insofli, diyonatli, tajribali, avval xalqni, Vatanning ravnaqini o'ylaydigan yosh kadrlar boshchilik qilishiga erishish bo'yicha ishlar olib borilmoqda. Zotan, boshqaruv tizimini takomillashtirish bevosita yosh rahbarlarning ma'naviyati, ularning shaxs sifatidagi kamoloti, yetuk va komil insonligi bilan bog'liq bo'lib

qolmoqda. Shuning uchun turli toifa va darajadagi yosh rahbar kadrlar tanlanayotganida ularning qobiliyati, bilim darajasi, tajriba va ko'nikmasi bilan birga, ma'naviy qiyofasiga ham jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Agar tarixga nazar tashlasak, buyuk ajdodlarimiz erishgan olamshumul yutuqlar zamirida, avvalo, ona Vatanga, xalqqa xizmat qilishdek olijanob maqsad mujassam ekanini ko'ramiz. Masalan, Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulug'bek singari ulug' allomalar, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo kabi shoir va mutafakkirlar, Abdulla Avloniy, Fitrat, Abdulla Qodiriydek ma'rifatparvar adib va olimlar o'zlarining ilmiy kashfiyotlariyu, o'lmas badiiy asarlarini aynan kamolot yoshida yaratganlarini hammamiz yaxshi bilamiz. Yodingizda bo'lsa, Toshkent viloyatining Olmaliq tumaniga tashrif buyurgan Prezidentimiz faollari bilan uchrashuvda kadrlar muammosi haqida gapira turib: «Men nima uchun hokim yordamchilari degan tizimni joriy qildim, chunki o'zim uchun yaxshi kadrlar qidirib yuribman. Mana, bugun ham sizlar bilan suhbatda o'zim uchun yangi kadrlarni kashf qildim.

...Toshkent viloyatiga majoziy ma'noda aytganda 30 ta hokim kelib-ketdi. Nega? Chunki ishni eplaydigan yaxshi kadrlar yo'q. Biri korrupsiyaga yo'l ochadi, boshqasi darrov g'o'ddayib, oyog'i yerdan uziladi. Men amalni beraman, lekin arqonni uzun tashlab qo'yaman», degan edilar.

Shu o'rinda bir misol keltirsak: 2021-yili O'zbekistonda korrupsiyaga oid jinoyatlar oqibatida davlat va jamiyat manfaatlariga 1 trln. 282 mlrd miqdorda moddiy zarar yetkazilgan. So'nggi ikki yilning o'zida esa 5 mingga yaqin mansabdor shaxs korrupsiyon jinoyatlar uchun javobgarlikka tortilgan. Yuqorida keltirilgan muammolar bu – eski illatlarning bugungi asorati. Afsuski, ba'zi odamlarni uyg'otish qiyin kechmoqda. Biz boshimizdan kechirayotgan



Biz boshimizdan kechirayotgan hozirgi davr – Yangi O'zbekistonni barpo etishda, «Uchinchi Rennessans» poydevorini yaratishda faqat ma'rifatli va ma'naviyatli yoshlarga umid bog'lash mumkinligini to'liq his etishimiz lozim.

Payshanba
16-fevral, 2023-yil
№6 (1194)

HAQQIMIZ YO'Q

YURTIGA, MEHR-SHAFQAT, MUHABBAT BARQAROR BO'LGAN, MUQADDAS MAKONGA AYLANTIRAYLIK

hozirgi davr – Yangi O'zbekistonni barpo etishda, «Uchinchi Rennessans» poydevorini yaratishda faqat ma'rifatli va ma'naviyatli yoshlarga umid bog'lash mumkinligini to'liq his etishimiz lozim. Bir masala mohiyatini bugun teranroq anglayapmiz: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti mansab lavozimiga kirishgan vaqtda eski davrda tarbiyalangan odamlar tarixi va imkoniyatlaridan foydalanishga majbur edi. Ular ishdan olinsa, xo'sh, o'rniga kimni qo'yardik? «Men chet tilini bilaman, ishini qoyil qilaman», degan odamlarga tegishli tayyorgarliksiz lavozim berish bilan hech narsaga erishish mumkin emasligini ham dastlabki yillar tahlili ko'rsatdi. Shuning uchun, eski zamon kishisi ekanligini, qotib qolganini, eski odatlarga o'rganib qolganini bila turib, baribir ular bilan hamkorlik qilishga majbur bo'lindi. Bugun esa zamon o'zgardi. Butun ma'rifatli dunyo tan olgan va rioya qilayotgan, zamonning o'zi taqozo etgan yangi tamoyillar, qonunlarni tushunmaydigan, qabul qilmaydigan, eskicha fikrlaydigan kadrlar Yangi O'zbekiston siyosatiga mutlaqo to'g'ri kelmasligini Davlat rahbari ham bot-bot takrorlamoqda. Ya'ni laganbardor, xushomadgo'y, ikki qo'lini ko'ksiga qo'yib ta'zim bajo etuvchi, mustaqil fikri yo'q, ammo o'zidan kattaroq amaldorning bema'ni fikrini ham siyosat qilib oluvchi kadrlar bilan Yangi O'zbekistonni qura olamizmi? Shu o'rinda ko'zga ko'ringan davlat arbobing fikrlarini keltirib o'tmoqchiman: «Tilimizda «muovin» degan so'z bilan birga «o'rinbosar» degan juda ma'noli so'z ham bor. Chuqurroq o'ylab qarasa, buning mazmuni shuki, o'rinbosar odam kerakli daqiqada, istalgan sharoitda boshliqning o'rnini bosa oladigan, rahbarining ishini yuksak saviyada davom ettirishga qodir kuchli shaxs bo'lishi zarur. Afsuski,

kundalik turmushimizda biz ko'pincha buning teskarisini ko'ramiz. Agar biror katta rahbarga, u hokim bo'ladimi, vazirmi, o'zingiz bir muovin toping, deylisa u qanday odamni tanlaydi? Tabiiyki, o'zining izmida yuradigan, gap qaytarmaydigan, shaxsiy sadoqatli, o'zidan saviyasi pastroq, hech qachon o'zining o'rnini bosolmaydigan odamni tanlaydi. Natijada biz bugun shunday achchiq haqiqatga duch kelib turibmiz: katta bir rahbarning yettita muovinidan birortasi ham bugun uning o'rnini egallashga munosib emas. Nega? Chunki o'sha boshliq o'zidan kuchliroq kadrlarni yoqiniga yo'latmagan, ularning qobiliyatini namoyon qilishiga yo'l bermagan». Konfutsiy esa: «mutaxassis iqtidori davlat idoralarning salohiyatini, davlat idoralarning salohiyati hukumatning mavqeini, hukumat mavqei esa davlat qudratini belgilaydi» degan ekan. Mamlakatda vijdonli, yurtparvar yoshlarimiz ko'p. Ammo ularning tajribasi kam, xolos. Xo'sh, biz ularga tegishli tajriba va malakani, zamonaviy boshqaruv asoslarini qayerdan olib o'rgatamiz? Hozir yoshlar mas'ul ishlariga, hokimiyat tizimlariga tortilyapti. Zero, yoshlarni ko'proq mas'ul ishlariga jalb etib, qiyinchiliklarda toblab, ularni bugungi zamon kadrlariga qo'yiladigan talablarga javob beradigan qilib tarbiyalashga katta e'tibor berilmoqda. Chunki oliy ma'lumotli, bilimga tashna, intiluvchan, iymoni baquvvat, iqtidorli yoshlarimizni tanlab olish va yosh kadrlar zaxirasini shakllantirish, umuman ularni mas'uliyatli lavozimlarga tayinlash yuzasidan izchil tarbiyaviy ishlar olib borish tizimini takomillashtirish vaqti keldi. Bir so'z bilan aytganda, hozirda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti iste'dodli, fidoyi yoshlarimizga bilim va kasb cho'qqilarini zabt etishi uchun qo'sh qanot bo'lmoqda desak,

hech mublag'a bo'lmaydi. Bu esa o'z fikriga ega bo'lganlar, dunyoqarashi keng, o'z fikrini himoya qilishga qodir yoshlar, eng muhimi, jamoat manfaatlarini o'z manfaatidan ustun qo'yadiganlar, qat'iyatli, oriyatli, tashkilotchi, el-yurt dardini yuradigan o'tkazadigan yoshlar zamon kelganidan dalolatdir. Sanab o'tilgan fazilatlarni mujassam etgan yigit va qizlarni topish, tanlash, o'z joyiga qo'yish – bugungi

kutubxonalarni saviyasi past darslik va qo'llanmalar bilan to'ldirib tashlashga tayyor turganlar ham yo'q emas. Eng asosiysi, bugun ona tilimizda yangi darsliklar yaratish tizimini yuqori bosqichga ko'tarish vaqti keldi. Aks holda, o'z ona tilini bilmaydigan no'noq «mutaxassislar»ni tayyorlashni davom ettirishimizga to'g'ri keladi. Bugun o'zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotidagi o'rnini va

Yosh yigit-qizlarimizning ishdagi, turmushdagi, oila va jamoa orasida o'z o'rnini topa olmasligi ularning jamiyatda o'z qadrini yo'qotishiga olib keladi. O'z qadriga, o'z sha'niga ega bo'lmagan inson hayotda ko'plab to'siqlarga uchraydi, beqaror va salbiy ta'sirlarga tez beriladi, uning shaxs sifatidagi yemirilishi ham tez kechadi. To'g'ri, yoshlarimiz kelajagi, eng avvalo, ularning o'ziga, ma'naviy qudratiga va milliy ongining ijodiy kuchiga bog'liq. Lekin moddiy farovonlikka intilish millatning ma'naviy va aqliy o'sish ehtiyojiga g'ov bo'lmasligi lozim. Alohida qayd etish joizki, ma'naviylik va ma'rifiylik xalqimizning ko'p asrlik tarixi davomida doimo uning eng kuchli o'ziga xos xususiyati bo'lib kelgan. Ma'naviy yuksalish – fikrlash tarzini Yangi O'zbekiston ruhi belgilaydigan yangi avlodga mansub ziyolilarning paydo bo'lishi demakdir. Milliy tafakkur o'z taraqqiyotida madaniy qurilish vazifalariga dunyo miqyosida yondashishi, boshqa xalqlarning taqdiri, ularning o'zaro munosabatlari bilan yaqindan qiziqishi, ular hayotining eng teran nuqtalarigacha kirib borishi, milliy manfaatlarini hisobga olishi lozim. Shundan kelib chiqib, mamlakatimizda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini mustahkamlash, aholi, ayniqsa, yoshlarimizda ma'naviy fazilatlarini yuksaltirish, oila va mahallalarda hamjihatlikni mustahkamlash maqsadida barcha tuman va shaharlarda Ma'naviyat va ma'rifat maskanlari faoliyat yuritmoqda. Shu zaminda yashayotgan har bir oila, ota-ona, jamiyatimiz va davlatimiz uchun eng katta ishonch-tayanchimiz, suyanchimiz – o'sib kelayotgan yosh avlodidir. Bugungi asosiy vazifamiz esa jondan aziz bolalarimizga zamon talabari darajasida bilim berish, ularni haqiqiy vatanparvar va yurtparvar etib tarbiyalashdan iboratdir.

Abdullayev Abdullayev,
siyosatshunos

KEYINGI UCH YILDA ESA KICHIK YOSHDAGI BOLALARNI MAKTABGACHA TA'LIM BILAN QAMRAB OLISH DARAJASINI 60 FOIZGA YETKAZISHGA, BOG'CHALAR SONINI ESA 3 BAROBAR KO'PAYTIRISHGA ERISHILDI.

kadrlar siyosatining negizi bo'lmog'i dardor. Shu bilan birga, bugun biz yosh kadrlarni, umuman farzandlarimizni ma'naviy kamolot hamda ma'rifatiga davlat siyosati sifatida qarashimiz lozim. Yoshlar ongidagi milliy iftixor tuyg'usi bilan boshqa millatlarning tarixi, madaniyati va qadr-qimmatini hurmat qilishning dialektik uyg'unligini ta'minlash zarur. Yoshlar ongida hozirgi dunyoda ro'y berayotgan barcha hodisalarga daxldorlik va mas'ullik hissini vujudga keltirish va doimo mustahkamlab borish dardor. Shu o'rinda bir narsani esdan chiqarmasligimiz kerak: eski qolipdagi darsliklar bilan zamonaviy kadrlarni tayyorlab bo'lmaydi. Biz o'z darsliklarimizni yaratish ishlarini yangi bosqichga ko'tarishimiz zarur. To'g'ri, bugun xorijdan adabiyotlar keltirilmoqda va ular uchun hukumat tomonidan kerakli mablag'lar ajratilyapti. Lekin

ahamiyati oshib bormoqda, bu borada milliy hamda xalqaro darajada ko'plab chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 21-oktyabr – O'zbek tili bayrami kuni deb e'lon qilinishi jamoatchiligimiz, butun xalqimiz tomonidan katta mamnuniyat bilan kutib olindi. O'z ona tilini bilish, uni o'rganish va targ'ib qilish yuksak ma'naviyat va xalqiga sadoqat belgisidir. Yana bir jihatga to'xtalajak: ta'lim-tarbiya sohasida juda katta ishlar amalga oshirilishiga qaramasdan quyida ushbu yo'nalishda ayrim pala-partishliklar mavjudligidan ham ko'z yummasligimiz kerak. Natija esa har doimgidek: biz yoshlarimizni mustaqil fikrlashga yetarli darajada o'rgata olmayapmiz. Mustaqil fikrga ega bo'lmagan odam esa har qanday olomonga ergashib ketaveradi. Natijada u jamiyatda o'z munosib o'rnini topa olmaydi. Bu narsa o'z navbatida noxush oqibatlariga, ba'zan esa og'ir fojialarga sabab bo'ladi.

AYOLLARNING ANDISHA QILIB, BIZ ERKAKLARGA AYTA OLMAGAN DARDU TASHVISHLARI, KUNDALIK MUAMMOLARI, ORZU-NIYATLARINI ULARNING O'ZIDAN YAXSHI TUSHUNADIGAN INSON YO'Q. ULAR O'Z QALBLARINI HAMMAGA HAM OCHAYERISHMAYDI.

SHAVKAT MIRZIYOYEV

«SAYYIDA» LARDAN JAHON

YANGI O'ZBEKISTON: AYOLLAR UCHUN

Ma'lumotlarga ko'ra, dunyo aholisining 51 foizini xotin-qizlar tashkil etsa-da, ularning bor yo'g'i 5 foizigina davlat va jamiyat boshqaruvi tizimida faoliyat yuritmoqdalar.

Xitoylik faylasuf ayol Szin-Nin Sun: «Ayollar – go'zallik ijodkorlaridir. Ular o'zlarini go'zallik, musaffolik va Yerdagi tartibning muxtor vakilasi sifatida tutishlari zarur. Zero, hayot ayolning qo'llariga muhtoj. Uning yetakchiligi va tadbirkorligi sharqona an'analarga, xususan, Dao falsafasiga mos keladi. Sharq ayoli qanday faoliyat bilan shug'ullanmasin, u go'zallikni targ'ib etuvchi hamda axloqiy idealarni o'zida ifoda qiluvchi timsol bo'lib qolaveradi», degan edi.

Sharq mutafakkiri Nizomulmuluk (1018-1092) esa «Siyosatnoma» asarining qirq uchinchi bobida «Ular mavjudligining maqsadi – nasni saqlashdan iborat», deb yozgandi. Tarixda ayol podshohlar haqida ham rivoyatlar talaygina. Masalan, Unsur al-Ma'aliy (Kaykovus)ning «Qobusnoma» asari Sharq xalqlari orasida ma'lum va mashhur bo'lib, undan ham ibratli, ham hayotiy pand-nasihatlarni o'rin olgan. Asarning «ishq va uning odatlari zikrida», «xotin olmoq zikrida» inson hayoti uchun qimmatli o'g'itlar bayon etilganini bir esga olaylik. Asarning yigirma to'qqizinchi bobida shunday rivoyat bor: «Bir ayol podshoh bo'ledi. Uni Sayyida (Jamiyatda sadoqat timsoli va avliyo sifatida tanilib, o'zligini anglagan ayollarni «Sayyida» deb atashgan) der edilar. U bag'oyat dindor edi. Ittifoqo uning eri vafot etgach, Majidudavla ismli o'g'liga podshohlik otini berdilar. Ammo aslida 30 yilgacha ona podshohlik qildi. O'g'li katta bo'ldi, ammo juda yaramas edi, oti podshoh bo'lsa-da o'zi faqat maishatparastlikdan bo'shamadi. Kunlardan bir kuni boshqa bir mamlakat podshohi unga o'z elchisi orqali «Xutba va sikka mening nomimga muzayyan etgil va xiroj berg'il. Yo'q ersa, borib viloyatingni olib, seni nesnobud qilurman va ko'p tahdid, taxfiv qilurman», deya noma yubordi. Shunda Sayyida elchiga «Sulton Mahmudga aytgil, mening erim tirikligida Sen biz tomonga hujum

qilmasang deb ko'nglingma kelur edi. Endi erim o'ldi. Sulton ko'zi ulug' va oqil podshohdir va o'zi yaxshi bilurki, uningdek, ulug' podshohga meningdek bir oqiz xotin bilan urishmoq bag'oyat nomunosibdir. Endi shuncha so'z bilan ham kelmak tilasa kelsin. Haq guvoh bo'lgayki, men hargiz qochmagumdir, urush maydonida barqaror turgumdir. Agar g'olib kelsam, barcha olamga Jahon podshohlariga shikast bergan Sultonga shikast berdim degan mazmun bilan noma yozarman. Shoirilar, olimlar fathnomalar yozarlar, qasidalar aytarlar. Bu ish olamga mashhur bo'lur. Agar u zafar topsa, na so'z yoza olgay, chunki bir xotin ustidan g'olib kelishi uningdek ulug' podshohga faxr bo'lmag'usidir», deydi. Shundan keyin podshoh o'lgunicha uning mulkiga qasd qilmagan ekan.

Yana bir misol. Aflotun tasvirlagan bekamu ko'st davlatda ham ayol kishi erkak bilan birga barcha ishlarda ishtirok etishi mumkinligi bitilgan. Hatto Aflotun ayollarni ro'zg'or yumushlaridan ozod etish lozimligini ta'kidlab, ularning aqliy faoliyatini erkaklarniki bilan teng deb baholagan. Ayollar faylasuf va jangchi ham bo'lishlari mumkin, degan g'oyasi bugungi kunda gender tengligining tarixiy nazariy asosi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Farzand tarbiyasi esa ikkala jins vakillariga teng bo'lgan mas'uliyatdir. Ma'lumki, Sharq mutafakkirlari ta'limotida iffat, nafosat, sadoqat va andisha kabi insoniy fazilatlar ko'proq ayollar nomi bilan bog'liq holda ulug'langan. Ayolning jamiyatda tutgan o'rni haqida so'z borganda, ana shu fazilatlar alohida ma'no kasb etgan. Islom ta'limotida ham ayollarga nisbatan bag'rikenglik g'oyalari ilgari surilgan bo'lib, xotin-qizlarni e'zozlash va hurmat-ehitrom ko'rsatishga alohida e'tibor berilgan. Abu Rayhon Beruniy turli xalqlarning tarixiy-madaniy xususiyatlarini tadqiq etar ekan, Sosoniylar davlatida laqabi Baxtli bo'lgan Bo'ron Xisrav Parviz qizi (taxminan 409 – 458 yillar) va laqabi Adolatli bo'lgan Ozarimiduxt Parviz qizi (taxminan 411 – 459 yillar) kabi ayollar shohlik qilganini qayd etgan edi. Demak, bu davrda mintaqada ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolligi taqiqlanmagan, aksincha, ular hatto davlat boshqaruvida ham ishtirok etganlar.

Rizouddin ibn Fahriddin

o'zining «Oila» asarida ayolning mavqeini quyidagicha izohlaydi: «Xotin faqirlikka qarshi bir ajrdir, vatani, uyi, istehkomi tirishqoqlik fani, harbiy idora, quroli igna bilan qaychi derlar. Lekin yolgiz askargina emas, balki buning ustiga kelishuv qozisi, tarbiyachi, nasihatgo'y hamdir. Tarixdan ma'lumki, o'zbek ayoli, o'zbek onalari nafaqat o'z elimiz, balki dunyo hamjamiyati, umumbashariyat taraqqiyotiga ulkan hissasini qo'shgan mashhur o'g'lonlari – jasur, botir Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi kabi sarkardalari, Bahouddin Naqshband, Abduholiq G'ijduvoni, hazrat Xo'ja Ahror Vali kabi aziz avliyolari, jahonni lol qoldirgan olimlari – Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Imom al-Buxoriy, Abu Ali ibn Sino, Al-Xorazmiy, Mirzo Ulug'bek, adiblari – Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Umar Hayyom, Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qahhor va Oybek singari insonlar bilan ham mashhurdir. Ularni shu darajada ma'nan yetuk etib tarbiyalaganlar esa ayollardir.

Jumladan, imom Buxoriyning ulug' alloma bo'lib yetishishida otasining taqvosi-yu, onasining ixlos ila qilgan duobodatlarning juda katta o'rni borligiga urg'u beriladi. Shu o'rinda Imom Buxoriyning onasi timsolida buyuk jasorat hamda boshqa ayollarga yuksak namuna bo'ladigan ulkan bir matonat namoyon bo'ladi. Ham turmush o'rtog'idan ayrilgan, ham farzandiga yetgan bunday musibatdan yosh Muhammadning onasi o'zini yo'qotib qo'ymaydi. Aksincha, kunduzlari o'g'lining ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanib, uni ilm olishga rag'batlantirar, tunlarini ibodat bilan bedor o'tkazib, Yaratgandan o'g'lining ko'z nurini qaytarishni tinmay iltijo qilib so'rar edi.

Darhaqiqat, ota-bobolarimiz «Ota-ona farzand uchun eng birinchi va oliy madrasadir», deb to'g'ri aytganlar. Oqila ayol tarbiyasi bilan, ko'zi oqiz bo'lishiga qaramasdan, yosh Muhammadning ilgari, ayniqsa, Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning muborak hadislarini yod olishga rag'batli kundan-kun oshib borgan tarixiy haqiqat.

Temuriy malikalar orasida esa eng buyuk siymolardan biri Gavharshodbegim edi. U kishi 1379-yilda o'z davrining yirik amirlaridan G'iyosiddin



Tarxon xonadonida tug'ilgan. Gavharshodbegim Amir Temurning o'g'li Shohrux Mirzoning zavjasi bo'lganlar. 2003-yilda Kobulda ochilgan ayollar universitetiga Mirzo Ulug'bekning onalari o'z davrining ma'rifatparvari Gavharshodbegim nomi berilgan ko'pchilikka ma'lum, albatta.

Outlug' Nigor xonim 1459-yilda Toshkent xoni Yunusxonning xonadonida tug'ilgan. Tarixiy manbalarga ko'ra, Boburning onasi o'qimishli va oqila ayol bo'lgan. Boburga hokimiyatni boshqarish ishlarida faol ko'mak bergan, harbiy yurishlarida unga hamrohlik qilgan. Saroymulxonning Amir Temurga har tomonlama davlat ishlarini boshqarishda, farzandlar, temuriyodal tarbiyasidagi ko'magi o'zbek ayolining faxri va g'ururi desak bo'ladi. Onalarimizning qay darajada mas'uliyatli bo'lganlarini Mirzo Ulug'bekning: «Onamning ismi-yu, ko'zlarigina gavhar emas, balki aqli ham gavhar edi», – deganidan ham anglasak bo'ladi. Mirzo Ulug'bek haqida so'z

ketganda, bevosita uni ilm ahliga hadya etgan volidai muhtaramasi Gavharshodbegimning yorqin siyosiy ko'z oldimizga keladi. U temuriylar sulolasida yorqin yulduz, shohlar ichidan chiqqan buyuk olim, bunyodkor Mirzo Ulug'bekning onasi Gavharshodbegim bo'lib, o'zining donoligi, tadbirkorligi, bunyodkorligi bilan tarixga o'z nomini muhrlagan maliklardan biri edi. Ayniqsa, Gavharshodbegim o'z aql-idroki, tadbirkorligi, husnu latofati bilan Shohrux Mirzoning ishonchini qozongan. Ayrim paytlarda u devon va saltanatni boshqarishda Gavharshodbegimning maslahatiga tayangan. Hatto, devon ishlarini boshqarish, lavozimga tayinlash, in'om berish, aybdorlarni jazolash huquqiga ham ega bo'lgan.

Tarixchi olim Amriddin Berdimurodov o'zining «Samarqand tarixidan tomchilar» nomli maqolalar to'plamida Gavharshodbegimning hatto shaxsiy muhrga ega bo'lganligini yozadiki, bu malikaning ayrim davlat ishlarida o'zi shaxsiy qaror qabul qilib,

MILLATLARARO DO'STLIK, DINIY KONFESSIYALAR O'RTASIDAGI HAMJIHATLIK, IJTIMOYIY BAG'RIKENGLIK MUHITINI YANADA MUSTAHKAMLASH UCHUN BOR KUCH VA IMKONIYATLARIMIZNI SAFARBAR ETAMIZ.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOEVNING OLIY MAJLISGA YO'LLAGAN MUHOJIRATNOMASIDAN

OTIN UVAYSIIYGACHA

YANGI IMKONIYATLAR OCHILMOQDA

uning ijrosini kuzatganini ham tasdiqlaydi. U to'q yashil mohtobdan, to'q yashil rangda, (nefridan) bodomsimon shaklda yasalgan bo'lib, sirtiga suls yozuvida arabcha xat bilan «Gavharshodbegim G'iyosiddin Tarxonning qizi», deb yozilgan. Malikaning bu muhri juda katta siyosiy kuchga ega bo'lgan va u bugungi kungacha yetib kelgan tosh o'ymakorligining go'zal namunasi hamdir. Bu noyob yodgorlik hozirda Sankt-Peterburgdagi Ermitaj muzeyida CA-13650 raqami ostida saqlanadi. Muhrning taxminan 1457-yillarda ishlangani ta'kidlanadi.

Ma'lumotlarga ko'ra, Gavharshodbegimning to'ng'ich farzandi Mirzo Ulug'bek go'dakligidayoq Samarqandga keltirilib, tarbiya uchun Bibixonimga topshirilgan. Malika o'g'lini ko'rish uchun Samarqandga kelib turgan. Malikaning naybatdagi tashrifi 1420-yilga to'g'ri keladi. Bu sanada Mirzo Ulug'bek o'zi barpo etgan madrasayi oliyani qurib bitkazgan va o'z faoliyatini endi boshlagandi. Hirotdagi Gavharshodbegim madrasasi uning vafotidan so'ng o'z davri uchun ham, keyingi davrlar uchun ham turli mutaxassislar tayyorlovchi ilm-ma'rifa markazi sifatida faoliyat olib borgan.

Bunday ma'lumotlar Sharq ayollarining siyosiy-ijtimoiy faol bo'lganliklarini isbotlovchi tarixiy dalillardan bir zarra, xolos. Bunday zukko onalarimiz haqida gap ketganda Esondavlatbegimning nevarasi Zahiriddin Bobur tarbiyasida alohida o'rin egallaganini ham aytish mumkin. Buguna kelib, mag'rur, jasur va dono To'maris, Bibixonim, Nodirabegim hamda Jahon otin UVaysiyar nomi nafaqat biz, balki butun dunyo ahli uchun ham ibrat desak xato bo'lmaydi. Ma'lumki, XIX asr oxiri va XX asr boshlariga kelib, buyuk ma'rifatparvarlarimiz Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniyar ham xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni borasida ibratli fikrlar bildirdilar. Masalan, Fitratning «Oila» asarida: «Aylarning ijtimoiy-siyosiy faolligi milliy ozodlik, erk uchun zarur, ayollar faqat uy-ro'zg'or, bola tarbiyasi bilan band bo'lib qolmasligi kerak, - deb yozilgan. Jadidchilik harakatining boshqa namoyondalari ham xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni nihoyatda yuqori baholab, ularni

ijtimoiy ozodlikka chiqarish zarurligini ta'kidlaganlar. Ularning fikricha, jamiyatni o'zgartirish ma'naviy va madaniy-maishiy hayotni tubdan isloh qilishdan boshlanishi kerak. Ya'ni, xotin-qizlarni jamiyatning to'laqonli a'zolari sifatida oila masalasini to'g'ri hal qilmasdan, yosh avlodni to'g'ri yo'lda tarbiyalamasdan turib, jamiyatni isloh qilish, uni taraqqiyot sari yo'naltirish mumkin emas. Ko'p o'tmay yangi davrda huquqshunoslik ilmini rivojlantirgan olimo huquq fanlari doktori Xadicha Sulaymonova, huquqshunos olimo yuridik fanlari doktori, professor Mamlakat Vosiqovalar o'z faoliyatlarini davomida ayollarga berilgan ta'riflar bejiz emasligini ko'rsatdilar.

Bugungi kunda ayollarga e'tibor har davrdan ham o'zgachadir. Ijtimoiy himoya masalalarida ham, ilmfan rivojida ham, siyosiy jarayonlarda ham xotin-qizlarimiz davlatimiz tomonidan faol ishtirok etishlari uchun barcha sharoit-sharoitlar yaratilgan adolatning tantanasidir.

Buguna kelib esa O'zbekiston Markaziy Osiyoda birinчилardan bo'lib BMning ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi Konvensiyasiga qo'shildi. Ayni shu vazifa «tenglik, taraqqiyot, tinchlik uchun harakat» shiori ostida o'tkazilgan to'rtinchi Jahon ayollar konferensiyasida ham (Xitoy, Pekin, 1995-yil sentyabr) asosiy vazifalardan biri sifatida shakllantirilgan edi.

Yangi O'zbekiston esa ushbu dolzarb masalaga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilayotganini alohida ta'kidlash joiz. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 7.03.2022-yildagi «Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarini yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni bunga yorqin misol bo'la oladi. Ushbu Farmonni qabul qilishdan asosiy maqsad xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish, ularning oila va jamiyatdagi o'rni va mavqeiini mustahkamlash, salohiyatini to'la namoyon etishdan iboratdir. 2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ham ayollarga munosib sharoit yaratish, ularning tashabbuslarini

qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bir qator yo'nalishlar belgilanib, ayollarni ijtimoiy himoya qilish maqsadida bir qator talablar o'rnatildi. Xususan, 2022-yilning 1-sentyabridan boshlab xususiy sektorda ishlayotgan ayollarga homiladorlik nafaqasini davlat tomonidan to'lash tizimi yo'lga qo'yilishi e'lon qilindi. Buning uchun esa, joriy yilda budjetdan 200 milliard so'm, 2023-yilda esa 1 trillion 700 milliard so'm mablag' ajratilgan diqqatga sazovordir. Shuningdek, davlat oliy ta'lim muassasalarining magistratura bosqichida o'qiyotgan barcha xotin-qizlarning kontrakt to'lovlarini qaytarish shartisiz qoplash maqsadida, Davlat budjetidan har yili kamida 200 mlrd. so'm moliyalashtirila boshlangani minglab xotin-qizlarimiz uchun qo'shimcha imkoniyat bo'ldi.

Shu o'rinda har yili xorijiy oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim dasturlari bo'yicha 50 nafar, magistratura ta'lim dasturlari bo'yicha esa 10 nafar xotin-qizlarga «El-yurt umidi» jam'armasi orqali qo'shimcha grantlarning ajratilayotgani ham O'zbekistonning xotin-qizlar faolligini oshirishdagi xorijiy hamkorligining amaliy ifodasidir.

Xulosa o'rinda shuni aytish joizki, 2022-yilning 8-avgustida Vazirlar Mahkamasining «Oqila ayollar» harakati faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risidagi 437-son qarori e'lon qilindi. Ushbu hujjatga ko'ra, yangi harakat xalqimiz, ayniqsa, xotin-qizlarimizni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularga oilaga va Vatanga sadoqat, fidoyilik, tashabbuskorlik tuyg'ularini singdirish, «odoblilik» va «ma'rifatlilik» qiyofasini shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishga keng imkoniyat yaratadi boshladi.

Bu esa Yangi O'zbekiston ayollarining salohiyati va iqtidorlarini namoyish etishlari uchun yo'llar kengayayotganidan ham dalolatdir.



Firdusa MUXITDINOVA, TDYU professori, yuridik fanlari doktori

ENG KATTA AYBDOR - O'ZIMIZ



2022-yilning 17-oktyabrida Toshkent shahrida havo ifloslanishi bo'yicha IQA ir reytingida Dehlini ham ortda qoldirib, dunyoda 1-o'ringa chiqib olgani xabar qilingan edi. Bu yil esa ana shu reytingda poytaxtimiz 2-o'ringa tushgani aytilmoqda. Ekspertlarning fikricha, atrof-muhitning ifloslanishi urush poligonlariga nisbatan 15 barobar ko'proq odam umriga zomin bo'lar ekan. Aslida bu juda xavotirli holat, albatta. Hatto, tibbiy xulosalar iflos havodan muntazam nafas olish allergik, astma, ko'z, tomoq va burun yo'li infeksiyasi kasalliklariga olib kelishini ko'rsatmoqda. E'tibor bering:

Britaniyaning «Lancet» jurnali ma'lumotiga ko'ra, 2015-yilda havo ifloslangani oqibatida turli kasallikka chalinib vafot etganlar soni 9 millionga yetgan. Bu dunyoda ro'y beradigan jami o'lim holatining 16 foiziga tengdir. Tadqiqotchi olimlar ekologiyani yomonlashuvi insoniyatga kashandalik, ochlik va tabiiy ofatlardan ham ko'proq ta'sir qilishini ta'kidlaymoqda. Asosli taxminlarga ko'ra, havoning me'yorida ortiq ifloslanishini mamlakatimizda daraxtkushlik, tartibsiz qurilishlar va sifatsiz jamoat transporti bilan bog'liq ekan.

Qayd etilishicha, 2022-yilning o'tgan 6 oyida daraxt va butalarning noqonuniy kesilishi bilan bog'liq 2300 ta huquqbuzarlik holati aniqlangan. Shuningdek, o'rmon fondi yerlarida daraxt va butalarni noqonuniy kesish holatlari hanuzgacha davom etayotir. Yana bir muhim ma'lumot: 2022-yilning 6 oyida jami 882 tup qimmatbaho daraxtlar kesib yuborilgan. Garchi, Respublika ekologiya qo'mitasi bu ko'rsatkichning 2021-yilga (1922 tup qimmatbaho daraxtlar kesilgan) nisbatan 55 foizga kamayganini ta'kidlasada, ekologiya himoyachilari bu tizim samarali ishlamayotganini

iddao qilmoqdalar. Bu havo ifloslanishiga sabab qilib ko'rsatilayotgan birgina omil, xolos. Yodingizda bo'lsa, Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev 2021-yilning noyabr oyida «Yashil makon» umummilliy loyihasini amalga oshirishga bag'ishlangan videoselektorda «dolzarb 40 kunlik» tadbiri doirasida yiliga 200 mln. tup daraxt va buta ko'chatlarini ekish va shu orqali shaharlardagi yashil maydonlarni amaldagi 8 foizdan 30 foizga yetkazish xususida mutasaddilarga qat'iy topshiriqlar bergan edilar. Afsuski, ekilgan daraxtlarning ma'lum qismi parvarishsiz qoldirilib, qog'ozda ko'rsatilgan raqamlar ham yolg'on bo'lib chiqdi.

Shu o'rinda haqli bir savol tug'iladi: demak, havo ifloslanishi uzoqda muammolar emas, balki ko'proq o'zimizga tegishli muammo ekan. Lekin bugun ekilmagan niholni ekildi, qurimagan daraxtni quridi deb hisobot berayotgan vijdonsizlar havo ifloslanishiga hissa qo'shib o'z farzandlarini zaharlashayotganliklarini tushunguncha kech bo'lmasa edi, deb o'raqsan. Ha, yana bir gap. Shahrimizni toza tutishda yana yaponlarni o'rnak sifatida ko'rsatishga majburmiz. Chunki ushbu davlatda chiqindilarni 10 turdan ortiq maxsus idishlarga tashlashning o'zi qonun bilan belgilangan ekan. Shuningdek, har yili 22 sentyabr butun dunyoda avtomobilsiz kun deya e'lon qilingan bo'lishiga qaramay kunchiqar mamlakat fuqarolari haftada bir kun o'zlari va farzandlari kelajagi uchun velotransportdan foydalanishar ekan. Xulosa o'rinda esa shuni aytgimiz keldi: musaffo osmonimizni asrashni ham o'zimizdan boshlaylik! Aks holda quruq gapdan nariga o'tolmay yuraveramiz.

Alisher QOSIMOV tayyorladi.

Shonli tariximizdan ma'lumki, valiahd shahzoda, malikalaru podshohlarni nafaqat hayotga, balki mamlakatni boshqarishga tayyorlashda, umuman, millat tarbiyasida zukko, farosatli, ilmli onalarning o'rne beqiyos bo'lgan. Onalarga hamisha yaratuvchi sifatida qaralgan va e'zozlangan.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili adabiyoti va folklori instituti yetakchi ilmiy xodimi, filologiya fanlari nomzodi Burobiya Rajabovadan shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning muhtasham «Boburnoma» memuarida ona, mudabbira ena, bunyodkor malikalarning tasviri haqidagi savollarimizga javob oldik.

BOBURNOMA'DA

OQILA, MUDABBIRA ONALAR QANDAY TASVIRLANGAN?

– **Suhbatimizni Zahiriddin Muhammad Boburni dunyoga keltirgan onasi Qutlug' Nigorxonim haqida «Boburnoma»da keltirilgan ma'lumotlar va tasvirlar haqidagi fikrlaringiz bilan boshlasak?**
– O'rganishimcha, Temuriylar Uyg'onish davrida saroy ayollarida ijtimoiy faollik o'sgan. Bunyodkorlikni o'zlariga sharaflar deb bilgan malikalarning davlat ishlaridagi faolligi himmat va ehsoni bilan belgilangan. Ular mamlakatning obodligi, farovonligi yo'lida hamda aql va qo'l ixtirolarining mamlakat bo'ylab yoyilishida saxiy mulkdorlar qatorida pul tikib, madrasalar, masjidlar, rabotlar qurdirgan, suv chiqargan, bog'lar barpo qilgan. Bobur Temuriylar Renessansi davrining murakkab saroy hayotiga ham ahamiyat qaratgan. Ancha yangi gaplar aytgan.

«Boburnoma»da yozilgan muhim ma'lumotlardan biri bu – onasi haqidagi xabarlaridir. Bobur onasi Qutlug' Nigorxonimni «Boburnoma»da o'ndan ortiq ma'lumotlarda tilga oladi. Asarda «mening volidam», «mening onam», «volidam», «volidaxonim», «onam», «onam xonim» kabi jumla va birikmalari bilan eng ko'p tasvirga olgan ayol obrazi ham aslida onasidir. Onasi Qutlug' Nigorxonim haqida yozilgan tarixiy ma'lumot va syujetlarning barchasi bir nuqtaga jam qilinsa, quyidagicha ma'lumot hosil bo'ladi. «Yunusxon va Eson Davlatbegimning ikkinchi qizi, Umarshayx Mirzoning xotini, Xonzodabegim va Bobur Mirzoning volidasi, Sulton Mahmudxon va Sulton Ahmadxonning kamtarin egachisi. «Aksar qazoqliklarda va fataratlarda» o'g'li Bobur bilan birga bo'lgan fidoyi ona, o'rne kelganda onalari, inilariga qo'shilishga intilgan, ammo «hech nav' rioyate va shafqate ko'rmagan» zaifa xonim, taxtsiz shoh o'g'lining yagona chodirida panoh va himoya topgan mushtipar ona, o'z sa'y-harakati bilan Boburni yaqinlarining qizlari Oysha Sultonbegim, Zaynab Sultonbegimga uylantirib, o'g'li qatori «sura-sura tashvishlar ko'rgan», «xeili sazovorlik ko'rmagan» qayin ona, «zamona nohamvorlig'idin va davron nosozkorlig'idin» behuzur bo'lib dardlar topgan Qutlug' Nigorxonim. Kobluda, o'g'li Bobur qo'lida «Tengri rahmatig'a borib» tog' etagida temuriy zoda Ulug'bek Kobuliy barpo qilgan bog' – «Bog'i Navro'ziy»da (bu bog'ning egalari Bobur bir ming tanga misqol berib rozi qilganligini Gulbadanbegim «Humoyunnoma»da yozib qoldirgan – B.R.) mangu makon topgan rahmatli ona».

Ushbu tasvirlardan Bobur shaxsining ma'naviy fazilati, buyuk xislatining bir jihatini kuzatish mumkin. U har qanday holatda ham, beqaror zamonda ham onasiga munosib vaziyat topa bilishi, onasi shafqatlari haqqini ado qilishga intilishidir. Boburning bu o'z-gacha fazilati juda katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Bobur onasining beshik tebratib o'tirgan holdagi nurli siymosini badiiy adabiyotda taniqli adib Xayriddin Sulton 1974-yilda yozgan «Yo'lbarsning tug'ilishi» nomli asarida mahorat bilan tasvirlagan.

– **Boburning enasi Eson Davlatbegim uni og'ir vaziyatlardan olib chiqqan, har tomonlama himoya qilgan ayol sifatida bizga ma'lum. Mana shu zukko ayolning biz uchun ham ibrat bo'ladigan xislatlari haqida to'xtalib o'ting.**

– Bobur asarida «ulug' onam» deb o'nlab o'rinda qalamga olgan Eson Davlatbegim haqida juda kam uchraydigan nodir ma'lumotlar berilgan. «Ul fursatda sag'riychabeklarning ulug'i Sher Hojibek edi, aning qizi Eson Davlatbegimni oldi». Demak, Eson Davlatbegimning beklarning ulug'i oilasidan chiqishi va mo'g'ul xonlaridan Yunusxon nikohiga kirishi unga siyosiy huquqiy jihatdan ilg'or muhitga kirishiga imkon bergan. «Mo'g'ul to'rasi bila xonni va Eson Davlatbegimni bir oq kiyiz ustiga o'lturg'uzub xon ko'tardilar» degan inauguratsiya marosimi bilan bog'liq xabari esa to'ra, qonun bilan kafolatlangan malika siymosini namoyon qiladi. Ulug' onaning tashkilotchi va taktik mahorati bois Bobur davlatiga qarshi kurashga otlangan Xasan Yoqub boshchiligidagi dushmanlar hamlasi barbod qilinadi. Ba'zi manbaalarda ushbu fitna va uning fosh etilishi bilan bog'liq tahlillarda negadir Eson Davlatbegim nomi tilga olinmagan.

Ijtimoiy harakatchanlik, faollik Bobur hokimiyatiga xayrixohlik, kuchli individualizm kabilar faqat va faqat Eson Davlatbegimga xosdir. Shu tufayli Bobur siyosiy hayotini kuchaytirgan va boyitgan ulug' onasiga bo'lgan muhabbati va hurmatini izhor etib «Xotunlar orasida ra'ya va tadbirda mening ulug' onam Eson Davlatbegimcha kam bo'lg'ay edi. Bisyor oqila va mudabbira edi. Ko'proq ish – kuch alarning mashvarati bila bo'lgur edi» deb yozadi. Boburning bu saralangan fikrlariga monand va xayrixoh fikrlar boshqa tarixiy manbalarda ham uchraydi. Bobur o'z tasvir va ta'riflarida biror bir xotin-qizlarning shakl-shamoyili, hashamati, kiyinish tarzi, zebu ziynati,


pardozi bilan bog'liq jihatlariga lavhalar bermaydi, vaholanki, lirikasida esa bunday tasvirlarni uchratishimiz mumkin. Bobur xotin-qizlarning aqli, odobi, farosati, hurmat va e'tibori, latofati, mehru muhabbati, idroki masalasida qat'iy fikr bildiradi. Hatto munosiblik jihatidan o'ziga teng bo'lgan ayolni topish Bobur uchun ham oson kechmaganidan xabardor bo'lamiz.

– **Saroy malikalaridan tashqari «Boburnoma»da oddiy onalar timsoli ham aks etganmi?**

– Boburni O'ratepaning Dehkat qishlog'idan chiqqan 111 yoshga kirgan oddiy onaxon ham hayratga solgan. «Boburnoma»dan o'qiydiz: «Dehkat O'ratepaning ko'hpoya kentlaridindur, ulug' tog'ning tubida tushubtur, bu tog'din o'tgach, Mascho bo'lur... Men bir kalontarining uyiga tushdim, qari kishi edi, oltmish-yetmishda bor edi, vale onasi hanuz bor edi. Xeyli umr topqan xotun edi, yuz o'n bir yoshda edi. Temurbek Hindustong'a kirganda bu xotunning uruqqayoshidin biri ul cherikka borib ekandur. Ul xotirida bor edi, hikoyat qilur edix», deb bitgan lavhaga murojaat qilsak. Bobur bu ma'lumotida o'zining Dehkatda boshida toj, ammo mulksiz, taxtsiz qazoqlikka yurgan sarsonu sargardon kunlari haqida yozar ekan, Amir Temur haqidagi eslatmani voqea ichida voqea shaklida tilga olgan. Ya'niki, bir yuz o'n bir yoshga kirgan keksa onaxon haqidagi o'zining hayratomuz fikrlarini bitar ekan, uning xotirlari asosida Amir Temurning Shimoliy Hindistonga qilgan harbiy yurishi va bu yurishda bir yuz o'n bir yoshni qarshilagan zukko onaxonning qarindoshlaridan biri oddiy askar sifatida qatnashganini alohida maroq va ko'nglidan kechgan Hindiston saltanati, umuman, saltanat orzusi bilan yozganligini sezish mumkin. Demak, onaxon Amir Temurning Shimoliy Hindistonga uyushtirgan uzoq muddatli harbiy yurishlari haqida aytgan hayotiy hikoyasi bilan kelajakka intiluvchi, oldinni ko'zlovchi Bobur diqqatini o'ziga jalb qilgan.

«Boburnoma»da muallif ulug' onasi Eson Davlatbegim, Shohbegim, Xadichabegim, Zuhrabegim og'a, Malika Bu'a obrazlari misolida saroy, davlat, ra'iyat ishlarida yuqori mavqega ega ayollarni ko'rsatadi. Bobur bergan ma'lumotlarda bu ayollarning mulk, millat ishlariga, podshoh va shahzodalar hayotiga ijobiy yoki salbiy, xayrli yo xayrsiz ta'sir kuchlarini ham ta'kidlab o'tadi.

Nigora RAHMONOVA
subhatlashdi.



ZAHIRIDDIN
MUHAMMAD
BOBUR
1483-1530

Kim ko'rubdur, ey ko'ngul, ahli jahondin yaxshilig'?
Kimki, ondindin yaxshi yo'q, ko'z tutma ondindin yaxshilig'!
Gar zamonnin nafy qilsam, ayb qilma, ey rafiq,
Ko'rnamdin hargiz, netayin, bu zamondindin yaxshilig'!
Dilrabolardindin yomonliq keldi mahzun ko'ngluma,
Kelmadi jonimg'a hech orom jondindin yaxshilig'.
Ey ko'ngul, chun yaxshidindin ko'rdung yomonliq asru ko'p,
Emdi ko'z tutmaq ne, ya'ni har yamondindin yaxshilig'?
Bori elga yaxshilig' qilg' ilki, mundindin yaxshi yo'q –
Kim, degaylar dahr aro qoldi falondindin yaxshilig'!
Yaxshilig' ahli jahonda istama Bobur kibi,
Kim ko'rubdur, ey ko'ngul, ahli jahondindin yaxshilig'?!

Jonimdin o'zga yori vafodor topmadim,
Ko'nglumdindin o'zga maxramy asror topmadim.
Jonimdek o'zga jonni dilafgor ko'rnamdin,
Ko'nglim kibi ko'ngulni giriftor topmadim.
Usruk ko'ziga toki ko'ngul bo'ldi muhtalo,
Hargiz bu telbani yana hushyor topmadim.
Nochor furqati bila xo'y etmisham, netay,
Chun vaslig'a o'zumni sazovor topmadim.
Bori boray eshigiga bu navbat, ey ko'ngul,
Nechaki borib eshigiga bor topmadim.
Bobur, o'zungni o'rgata ko'r yorsizki, men
Istab jahonni, muncha qilib, yor topmadim


G'ofil o'lma, ey soqiy, gul chog'in g'animat tut!
Vaqt aysh emas boqiy, ol chog'ir, ketur, bot tut!
Bu nasihatim tingla: ne bo'lur kishi yongla,
Ne bo'lur ekin tongla, sen bu kun g'animat tut!
G'ofil o'lma davlatta, o'zni solma mehnatga,
Tangri berur albatta, davlat ista, himmat tut!
Xushturur visoli yor, anda bo'lmasa dayyor*,
Bo'lsa vasl beag'yor davlatu saodat tut!
G'am cheriki behaddur, chorasi budur, Bobur:
Bodani ko'mak keltur, jonni himoyat tut!

Xati – binafsha, xadi – lola, zulfi rayhonidur,
Bahori husnada yuzi ajab gulistondur.
Iki mengi oyu dog'i yuzu so'zi gulu mul,
Qadi ravonu tani jonu irni marjondur.
Qoshida chinu ko'zida kinu angabin labida,
So'zida zahr va lekin tilida darmondur.
Qoshingga ko'p bora olmon, netay, aroliqda,
Yoshim tishning duridindin ayru bahri Ummondur.
O'tumni tez etasen har tarafga sekretib ot,
Samandi noz inonini bir beri yondur.
Ne nav' vasf qilay suratig' latofatini –
Ki, husnunga sening, ey ruh, aql hayronidur.
Jafoyu javr agar qilsa, Boburo, netayin,
Ne ixtiyor manga, har ne qilsa, sultondur.

Ko'nglumni chu ul pari olibtur,
Devona bo'lurg'a ne qolibtur?!
Bedil ekanimni emdi bilgay,
Chun bir kishi ko'nglini olibtur.
Ko'nglumni olib, tag'ofulin ko'r,
Bilmasga o'zini ne solibtur.
Zulfung cherigini yig'ki, jam'i
Bu fitnadin asru qo'zg'olibtur.
Bobur, necha kun ko'ngulni xush tut,
Bu olam ishi chun munqalibtur.

Qaro zulfung firoqida parishon ro'zgorim bor,
Yuzungnung ishtiyogida ne sabru ne qarorim bor.
Labing bag'rimni qon qildi, ko'zumdin qon ravon qildi,
Nega holim yamon qildi, men ondindin bir so'rorim bor.
Jahondindin manga g'am bo'lsa, ulusdin gar alam bo'lsa,
Ne g'am yuz muncha xam bo'lsa, seningdek g'amgusorim bor.
Agar muxlixmen, ar muhsid va gar oshigimen, ar obid,
Ne ishing bor sening, zohid, meningki ixtiyorim bor.
Fig'onim oshti bulbuldin, g'ami yo'q zarra bu quldin,
Base, Bobur, o'shal guldin ko'ngulda xorxorim bor.

Gul jamolin yopqon ul gulning iki rayhonidur,
G'uncha sirrin ochqon ul ikki labi xandonidur.
Ul musalsal ikki zulfi gul yuzining davrida,
Gul uza ag'nar, magar ul ikkining davronidur.
O'qi xaxmini ko'rub har yon tanimda, el degay –
Kim, bu ko'hi dardning ul lolai nu'monidur.
Sel emasdur yer yuzin tutqon – ko'zunning yoshidur!
Ra'd emasdur ko'kka chirmashqon – ko'ngul afg'onidur!



Lojaram, bo'lg'ay parishonu xavoyi men kibi
Zarra yanglig' kimki bir xurshid sargardonidur.
Ul pari ishqida, Bobur, qo'nglum andoq telbadur –
Kim, sochi zamjiridur, chohi zaqan zindonidur.

Mening ko'nglumki, gulning g'unchasidek tah-batah qondur,
Agar yuz ming bahor o'lsa, ochilmog'i ne imkondur.
Agar ul qoshi yosiz bog' gashindin orzu qilsam,
Ko'zumga o'qdurur sarvu ko'ngulga g'uncha paykondur.
Bahoru bog' sayrin ne qilaykim, dilsitonimning
Yuzi – gul, zulfi – sunbul, qomati sarvi xironondur.
Visoli lazzatidindin ruh topmog'liq erur dushvor,
Firoqi shiddatida yo'qsa jon bermaklik osondur.
Boshidindin evrular armoni birla o'ldum, ey Bobur,
Mening na'shimni bori ul pari ko'yidindin aylondur.

G'urbatta ul oy hajri meni pir qilibtur,
Hijron bila g'urbat manga ta'sir qilibtur.
Maqdur borincha qiluram sa'yi visoling,
To Tengrini, bilmonki, ne taqdir qilibtur.
Taqdiridur ul yonu bu yon solg'uchi, yo'qsa,
Kimga qavasi Sanbalu Tatyir qilibtur?
Bu Hind yeri xosilidindin ko'p ko'ngul oldim,
Ne sudki, bu yer meni dilgir qilibtur.
Sendin bu qadar qoldi yiroq – o'Imadi Bobur,
Ma'zur tut, ey yorki, taqsir qilibtur.

Ne xush bo'lg'ayki, bir kun uyquluq baxtimni uyg'otsam,
Kechalar tori mo'yidek beliga chirmashib yotsam.
Gahi guldek yuzini ul shakar so'zluqning islasam,
Gahi shakkar kibi ul yuzi gulning la'lidin totsam.
Qani Shirin bila Layliki, sendin noz o'rgansa?
Qani Farhodu Majnunkim, alarg'a ishq o'rgatsam?!
Yoruq kunduz, qorong'u kechada anjum kibi bo'lg'ay,
Chekib gar oh dudini, ko'ngul o'tini tutratsam.
Ko'zum ravshanlig'ida bo'lg'ay, ey Bobur, base kamlig',
Agar qoshi bila yuzin hilolu kunga o'xshatsam.

Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidur!
Har kimki jafu qilsa, jafu topqusidur!
Yaxshi kishi ko'rmaqay yomonliq hargiz,
Har kimki yomon bo'lsa, jazo topqusidur!

Yuz shukr de, Boburki, karimi G'affor,
Berdi sanga Sindu Hindu mulki bisyor.

Issiklig'ig'a gar senga yo'qtur toqat,
Sovuq yuzini ko'ray desang, G'azni bor.

Ey qomati sarvu lablari obi hayot,
Budur tilagimki, – yetkamen vaslingga bot!
Hajringda manga ne sabr qoldi, ne sabot,
Yo kel bu sorig'a yo meni o'zungga qot!

Hijron qafasida jon qushi ram qiladur,
G'urbat bu aziz umrni kam qiladur.
Ne nav' bitay firoqu g'urbat sharhin –
Kim, ko'z yoshi nomaning yuzin nam qiladur.

Jisminda isitma kunda maqkam bo'ladur,
Ko'zdin uchadur uyqu chu axsham bo'ladur.
Har ikkalasi g'amim bila sabrimdek,
Borgon sori bu ortadur, ul kam bo'ladur.

Yo Rab, menda ne yaxshi tole' bordur –
Kim, baxti muti'yu yori tobe' bordur.
Ma'zur tut ar vaslingga kechroq yetsam,
Ne chora qilay, ozg'ina mome' bordur.

Ko'pdin berikim, yoru diyorim yo'qtur,
Bir lahzayu bir nafas qarorim yo'qtur.
Keldim bu sori o'z ixtiyorim birla,
Lekin borurimda ixtiyorim yo'qtur.

Ey qo'rg'on eli, qoldimu darmonlaringiz?
Chiqmay, nedurur bu jaxl qilgonlaringiz?
Jondek kishilar ochlig' idin chun chiqadur,
Siz chiqmasangiz – chiqasa kerak jonlaringiz!

Kim yor anga ilm, tolibi ilm kerak,
O'rgangali ilm tolibi ilm kerak!
Men tolibi ilmu tolibi ilme yo'q,
Men bormen ilm tolibi – ilm kerak.

Yo qahr u g'azab birla meni tufroq qil!
Yo bahri inoyatingda mustag'raq qil!
Yo Rab, sengadur yuzum – qaro, gar oq qil,
Har nav' sening rizong erur, andoq qil!

? – O'g'limga 3 yilu 6 oylik qamoq jazosi berilgan edi. O'tgan oy belgilangan jazo muddatining 2 yili o'tdi. Unga avf qo'llanilishiga umid qilsam bo'ladimi? Umuman, mahkumlarni avf etish tartibi qanday? Shu haqida ma'lumot bersangiz?

Sayyora Choriyeva,
Qamashi tumani

– O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 8-maydagi PF-5439-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasida avf etishni amalga oshirish tartibi to'g'risida»gi Nizomga muvofiq, avf etish mahkumini jazodan to'liq yoki qisman ozod etadigan yoki sud tomonidan tayinlangan jazoni boshqa yengilroq jazo bilan almashtiradigan yoxud sudlanganlikni olib tashlaydigan insonparvarlik akti hisoblanadi. Avf etish Prezident tomonidan Farmon qabul qilish orqali amalga oshiriladi. Avf etish: asosiy va ijro etilmagan qo'shimcha jazodan to'liq yoki qisman ozod qilish, jazodan muddatdan ilgari shartli ozod qilish, umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosini yoki jazoning o'talmagan qismini yengilroq jazo bilan almashtirish, sudlanganlikni olib tashlash shakllarida amalga oshiriladi. Shuningdek, avf etish O'zbekiston sudlari tomonidan hukm qilingan mahalliy fuqarolarga, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga nisbatan ham qo'llaniladi. Bundan ko'rinadiki, Sizning o'g'lingiz jazoni ijro etish muassasalarida belgilangan talablarga rioya qilib, o'zini ko'rsatsa, avf etilishi mumkin.

Adinaxon Abdaxaliqova,
huquqshunos



? – Xorijda tahsil olayotgan talabalar O'zbekistonning chet ellardagi konsul xonalari orqali fuqarolik pasportini rasmiylashtirishi yoki almashtirishlari mumkinmi?

Feruz Xojayeva,
Toshkent shahri

– Xorijda tahsil olayotgan va chet el mutasaddi tashkilotlari tomonidan talaba (o'quvchi) maqomida ro'yxatdan o'tgan hamda uzrli sabablarga ko'ra, O'zbekistonga kelib, o'z turar joylaridagi ichki ishlar bo'limlariga murojaat qila olmaydigan fuqarolar pasport almashtirish va unga chet elga chiqishga ruxsat stikeri kiritish bo'yicha konsullik muassasalariga murojaat etishlari mumkin. O'zbekiston Respublikasining konsullik muassasalari tomonidan pasportlarini yo'qotib qo'ygan talabalardan yangi pasport rasmiylashtirish uchun ham hujjatlar qabul qilinmaydi. Bunday hollarda ularga vatanga qaytish guvohnomalar beriladi va ular yo'qotilgan pasport o'rniga yangi pasport rasmiylashtirish uchun doimiy yashash joylaridagi ichki ishlar bo'limlariga murojaat qilishlari mumkin bo'ladi.

yurixmat.uz

? – Aliment to'lash to'g'risidagi kelishuvni o'zgartirish yoki bekor qilish mumkinmi? Aqida Saidova, Jizzax shahri

– Oila kodeksining 132-modasiga ko'ra, aliment to'lash to'g'risidagi kelishuv taraflarning roziligi bilan istalgan vaqtda o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin. Bu kelishuv qanday shaklda tuzilgan bo'lsa, uni o'zgartirish yoki bekor qilish ham shu shaklda amalga oshiriladi. Ammo kelishuvning bajarilishini bir taraflama rad qilish yoki uning shartlarini bir taraflama o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi.

Faqat taraflarning moddiy yoki oilaviy ahvolda jiddiy o'zgarishlar yuz berganida hamda aliment to'lash to'g'risidagi kelishuvni o'zgartirish yoki bekor qilish to'g'risida ular o'zaro kelisha olmaganida manfaatdor taraf kelishuvni o'zgartirish yoki bekor qilish to'g'risidagi da'vo bilan sudga murojaat qilishi mumkin. Bunda sud kelishuvni o'zgartirish yoki bekor qilishdan oldin taraflar manfaati uchun barcha davolarni hisobga olishga majbur.

Iroda Artiqmurodova,
DNI notariusi

? – O'zbekistonda ham lavanda yetishtirish va undan efir moyi olish amaliyoti yo'lga qo'yilganini eshitib qoldim. Shu axborot to'g'rimi?

Xolmo'min Ahmedov,
Norin tumani fermer


– Ha, chindan ham xabar asosli. Bunga fevral oyidan boshlab Nurota tumani Chuya mahallasi hududidagi 500 gektar yer maydonida umumiy qiymati 2,5 mln. dollarlik lavanda o'simligini yetishtirish va qayta ishlashni tashkil etish bo'yicha innovatsion loyiha ishga tushirilgani ham misol bo'lishi mumkin. Ayni paytda ushbu loyiha ikki bosqichda amalga oshirilmoqda. Unga ko'ra, dastlab yerlarning unumdorligini oshirish maqsadida kerakli agrotexnik tadbirlar o'tkaziladi. Lavanda hosilga kirgach, efir moyini ishlab chiqarish majmuasi barpo etiladi. Bunday noyob o'simlik yetishtirish jarayonida Rossiya, Turkiya va Bolgariya tajribasi o'rganilganini, urug'lar ham ushbu mamlakatlardan olib kelinganini aytish mumkin. Qayd etilishicha, kelgusida lavanda o'simligidan olingan efir moylarini ham asosan Rossiya, Fransiya va Turkiyaga eksport qilish rejalashtirilgan.

Lutfiyor Mansurov,
Navoiy tumani hokimligi
axborot xizmati

O'zingizni qiziqtirgan savollarga javob topolmayapsizmi? Bizning quyidagi telegram manziligimizga yo'llang, bizning mutaxassislar savollaringizga javob berishadi.

99 443-05-86

O'tganlarning oxirati obod bo'lsin!



Yodimda bor, 2017-yili partiyamiz tomonidan mavjud madaniy meros obyektlarining bugungi holati o'rganilib, ular xatlovdan o'tkazilgan. O'rganishlar natijasi yuzasidan esa Qonunchilik palatasida Madaniyat vaziri Baxtiyor Sayfullayevning axboroti eshitilgan edi. Deputatlarning o'nlab yo'q bo'lib ketgan obyektlar haqidagi «noqulay» savollari qanchalik achchiq bo'lmasin. Baxtiyor aka Sayfullayev o'ta bosiqlik, kuyunchaklik va aniq dalillar bilan javob qaytaradi. O'shanda men savollarga ham yetuk mutaxassis, ham Inson sifatida o'z qalбини qo'shib javob berayotgan rahbarini ko'rgandim, desam mubolag'a bo'lmaydi. Bugunga kelib o'sha paytda ko'tarilgan masalalar o'z yechimini topdi. Partiya bilan Madaniyat vazirligi hamkorligida milliy madaniyatimiz dardiga darmon bo'ladigan qator tashabbuslar ilgari surildi. Va, nihoyat madaniy merosimizni asrashga mas'ul bo'lgan davlat organi faoliyati yo'lga qo'yildi. Ya'ni, xalqimiz boyligining muhofizi paydo bo'ldi... O'tgan uch yil mobaynida ham Senatning Baxtiyor aka Sayfullayev yetakchilik qilgan yoshlar masalalariga doir qo'mitasi majlislarida ekspert sifatida ishtirok etdim. Va, yana bir bor bu Hazrati inson haqida o'zim uchun hayotiy xulosalar chiqardim. Ular egallab turgan mansabingga, mavqeingga qarab muomala qiladigan ayrim rahbarlardan farqli o'laroq, juda samimiy, ochiqko'ngil edilar. Ayniqsa, u kishi

sohaning haqiqiy mutaxassislarini nihoyatda qadrlardilar. Yoshlari ulug' bo'lishiga qaramay, eng oxirgi qatorda o'tirganlar bilan – ayolmi, erkakmi farqi yo'q alohida kelib salomlashar, ularning yig'ilishlarda aylimay qolgan mulohazalarini esa erimmay tinglardilar. Xullas, Baxtiyor Sayfullayev majlislarda ham eng oxirgi qatorlarda o'tirganlar SO'ZINI ESHITA olgan chin RAHBAR edilar! Xabaringiz bor, yaqinda mamlakatimizda «Mehribonlik» uylaridan 10 nafargacha bola olish imkoniyatini beradigan yangi tizim joriy etildi. O'shanda o'n nafar bola ko'plik qilmasmikin, degan savol o'tgandi xayolimdand. Chunki ona sifatida ba'zan o'z bolang qalbiga ham yo'l topolmay qolasan kishi. Qo'mita majlisida Baxtiyor Sayfullayev shu masalani ko'tarib, oilaviy bolalar uylariga berilayotgan bolalarning sonini 3-5 nafar etib belgilash taklifini ilgari surdilar. Bu masala ham yaqinda yechim topdi. Bu borada tegishli normativ-huquqiy hujjatlar o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Ertaga nasib etsa, Baxtiyor Sayfullev taklif etgan anjumanda ishtirok etaman. Bu ularning imzolari bilan kelgan so'nggi xat bo'lib qoldi. Nazarimda egasi yo'q majlisga borayotgandekman. Hohim, o'ziga xos imzoga ega rahbar, KATTA qalb egasi bo'lgan ustozimizni Alloh rahmatiga olsin! Duodamiz. Yaqinlariga chiroyli sabr tilaymiz.

Feruz MUHAMMEDJANOVA

«MILLIY
TIKLANISH»
DEMOKRATIK
PARTIYASINING
LITSIUMIY-
SIYOSIY
GAZETASI

JAMOATCHILIK KENGASHI:
Atlasher QODIROV – kengash raisi

Akmal SAIDOV,
Abdulaziz AKKULOV,
Abror PO'LATOV,
Amriddin BERDIMURODOV,
Akmal JUMABOYEV,
Bahodir MAMATXONOV,
Baxtiyor SAYFULLAYEV,
Ibrom ABDULLAYEV,
Ibrohim G'OFUROV,
Iroda DADAJONOVA,
Minhojiddin MIRZO,

Bosh muharrir:
Mirodil ABDURAHMONOV

TAHRIRIYAT
MANZILI:

Toshkent shahri,
Uchtepa tumani,
Maqsud Shayxzoda
ko'chasi, 1-A-uy.
Gazeta ta'hiriyati
kompyuter markazida
terildi va sahifalandi.

Mualliflar fikri
ta'hiriyat nuqtayi
nazaridan farq qilishi
mumkin.

Ta'hiriyatga kelgan xatlar
doimiy e'tibormizda bo'lib,
ular mualliflariga qaytarilmaydi.

NAVBATCHI
MUHARRIRLAR:
Rayshan MAHMUDOVA,
Mabhuba KARIMOVA
NASHR UCHUN MAS'UL:
Ma'murjon YULDOSHEV
NAVBATCHI:
Viloyatxon SHODIYEVA
DIZAYN GURUHI:
Asibek QUDRATOV,
Firdavs HAMIDULLAYEV

Gazeta «Sharq» nashriyoti-
matbaa aksiyadorlik
kompaniyasida chop etildi.
Korxonaa manzili: «Buyuk
Turon» ko'chasi, 41-uy

Elektron pochta:
mtkkanish@bk.ru /
mtkkanish@mail.ru

ISSN 2010-7714



ISSN 2010-7714

2008-yil 29-oktyabrda O'zbekiston
Matbuot va axborot agentligi
tomoniidan № 0223 raqami bilan
ro'yxatdan o'tgan.
Gazeta haftaning chorshanba kuni
chiqadi.

Adadi – 3 700.
Gazetaning bahosi kelishilgan narxda.
Ong'oz bichimi: A3. Hajmi: 4 bosma
tabaq.
Buyurtma: G – 216
Bosishga topshirish vaqti 21.00.
Topshirildi 21.30